

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ
XO'JALIGINI MEXANIZATSİYALASH
MUHANDISLARI INSTITUTI BUXORO FILIALI**

«QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSİYALASH» FAKULTETI

**«TEXNOLOGIK JARAYONLAR VA ISHLAB CHIQARISHNI AVTOMATLASHTIRISH
VA BOSHQARISH» KAFEDRASI**

“5311000 –Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (suv xo'jligida)” yo'nalishi bo'yicha

**“QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINI
MODERNIZATSİYALASHNING IJTIMOY
IQTISODIY AHAMIYATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI”**
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Bajardi:

**4/1 TJ va ICHAB guruhi
talabasi O'ktamova ferusza**

Rahbar:

assistent Usmonov J.I.

Himoyaga ruxsat etildi
“___” _____ 2018 y.

«TJ va IChAB» kafedrasi mudiri v.b.: _____ Usmonov J.I.

BUXORO – 2018y.

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ
XO'JALIGINI MEXANIZATSİYALASH
MUHANDISLARI INSTITUTI BUXORO FILIALI**

**«SUV XO'JALIGINI AVTOMATLASHTIRISH VA MEXANIZATSİYALASH»
FAKULTETI**

**- TEXNOLOGIK JARAYONLAR VA ISHLAB CHIQARISHNI
AVTOMATLASHTIRISH VA BOSHQARISH » KAFEDRASI**

**“5311000 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va
boshqarish (suv xo’jligida)” yo’nalishi bo’yicha**

4/1 TJ va ICHAB guruhi

**«Tasdiqlayman»
Kafedra mudiri
«____» _____ 2017 y.**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO’YICHA TOPSHIRIQ

Talaba Akiyeva Gulshirin

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: “Sug’orish tarmoqlarini GSM/GPRS-modem yordamida avtomatlashtirish va dispatcherizatsiyalash”

1. Kafedra majlisida «____» _____ 2018 y. tasdiqlangan (bayon №____).

Bitiruv malakaviy ishini topshirish muddati: _____

I Bitiruv malakaviy ishni bajarish uchun zarur ma'lumotlar: “Gidromeliorativ tizimlardan foydalanish”, “Gidromeliorativ tizimlarda texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish”, “Avtomatik boshqarish nazariyasi”, “Suv xo’jligida texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari”, “Avtomatik tizimlar va elektr vositalarning montaji, sozlash va ekspluatatsiyasi”, “Avtomatik tizimlarni loyihalash”, “Sug’orish tizimlarini avtomatlashtirish va uning iqtisodiy samaradorligi” fanlar asoslari.

J Hisoblash-tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqilgan masalalar ro’yxati): kirish, masalaning qo’yilishi, ish maqsadi, adabiyotlar tahlili, texnologik jarayonning tavsifi, jarayonni avtomatlashtirishning funksional sxemasini ishlab chiqish, nazorat-o’lchov asboblarini va ijrochi mexanizmlarni tanlash, rostlash konturini sozlash va uni tadqiqot qilish, boshqarish tizimining

strukturali sxemasini ishlab chiqish va uning dinamik xarakteristikalarini aniqlash, ABTni joriy etish bo'yicha iqtisodiy samaradorlikni hisoblash, mehnat muhofazasi va ekologiya masalalarini ishlab chiqish, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va saytlar ro'yxati, ilova.

№	Bo'lim mavzusi	Maslahatchi o'qituvchi	Imzo	
			topshiriq berildi	topshiriq bajarildi
1	Asosiy qism	Ass. Hakimova S.Sh.		
2	Hayot faoliyati xavfsizligi			

6. Bitiruv ishini bajarish rejasি:

№	Bitiruv ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati, sana	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi
1	Mavzu bilan tanishish, adabiyotlar ustida ishslash		
2	Bitiruv malakaviy ishining I - bobি ustida ishslash		
3	Bitiruv malakaviy ishining II - bobি ustida ishslash		
4	Bitiruv malakaviy ishining III - bobি ustida ishslash		
5	«Hayot faoliyati xavfsizligi» bobি ustida ishslash		
6	Bitiruv ishini rasmiylashtirish		
7	Bitiruv ishi himoyasiga tayyorlanish		
8	Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish		

Bitiruv ishi rahbari: _____ ass. Hakimova S.SH.

Topshiriqni bajarishga oldim:_____

Topshiriq berilgan sana: «____» _____ 2017 yil

ANNOTATSIYA

Ushbu bitiruv malakaviy ishi sug'orish tarmoqlarini GSM/GPRS-modem yordamida avtomatlashtirish va dispetcherizatsiyalash masalalariga bag'ishlangan. Bitiruv malakaviy ishining tushuntirish xati quyidagi qismlardan iborat: kirish, nazariy qism (I- bob), asosiy qism (II- bob), hayot faoliyati xavfsizligi qismi (III- bob), iqtisodiy qism (IV-bob), xulosa, adabiyotlar.

Kirishda qishloq xo'jaligida suv ta'minotini avtomatlashtirish bugungi kunda davlatimizda muhimligi va bunga doir yechilayotgan muammolar ko'rib chiqilgan va mavzuning dolzarbligi, masalaning qo'yilishi, bitiruv malakaviy ishining maqsadi, masalalari, qo'llanayotgan usullar, ishning amaliy ahamiyati keltirilgan.

I-bobda qishloq xo'jaligida suv ta'minoti va uni yaxshilash tadbirlar turlari, sug'orish tizimlarini avtomatlashtirishning vazifalari, sug'orish tizimlarini avtomatashtirish va boshqaruvning usullari, gidrotexnik inshootlarini avtomatlashtirish, suv olish gidrotexnika inshootidagi texnologik jarayonlar haqida batafsil adabiyotlar tahlili qilingan.

II-bobda fermer xo'jaliklarda suvni tarqatish texnologiyasi tahlili, sug'orish jarayonini avtomatik boshqarishning dasturli qurilmalari, ichki xo'jalik kanallarida avtomatik nazorat va boshqarish vositalari, zamonaviy modem lar imkonyatlari va vazifalari, Owen PM01 GSM / GPRS modemidan foydalanib dispetcherizatsiyalash, avtomatik rostlash tizimini dinamik xususiyatlarini aniqlash, avtomatik boshqaruv tizimlarida qo'llanuvchi texnik vositalarini tanlash, avtomatlashtirishning funksional-texnologik sxemasi, loyihalangan tizimning turg'unligini aniqlash masalalari ishlab chiqilgan.

III-bobning nomi: «Hayot faoliyati xavfsizligi». Tushuntirish xatinning shu

qismida nasos stansiyalarda hayot faoliyat xavfsizligi masalalari, elektr xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, zaxarlanganganda birinchi yordam fuqaro muxofazasi va tabiatni muhofaza qilish savollari ko'rib chiqilgan. IV-bobda iqtisodiy samaradorlik hisoblangan va xulosa qilingan.

M U N D A R I J A betlar

KIRISH.....

I BOB. QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINI MODERNIZATSIYALASHNING IJTIMOY – IQTISODIY AHAMIYATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

- 1.1. Qishloq xo'jaligi korxonalarini modernizatsiyalashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati
- 1.2. Qishloq xo'jaligi korxonalarini modernizatsiyalashning o'ziga xos xususiyatlari

II BOB. QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINI HOZIRGI HOLATI HAMDA IQTISODIY SAMARADORLIGINING TAXLILI

- 2.1. Qishloq xo'jaligi korxonalarini hozirgi holatining taxlili
- 2.2. Qishloq xo'jaligi korxonalarini modernizatsiyalashning iqtisodiy samaradorligining tahlili

III BOB. QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINI MODERNIZATSIYALASHNING YO'LLARI VA ISTIQBOLLARI

- 3.1. Qishloq xo'jaligi korxonalarini modernizatsiyalashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'llari
- 3.2. Qishloq xo'jaligi korxonalarini modernizatsiyalashning tizimini takomillashtirish istiqbollari

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbliги. Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida hozirgi kunda qishloq xo'jaligi korxonalarini modernizatsiyalash va tarmoqni yanada rivojlantirish yo'naliшlariga yangicha qarashlarning shakllanishi namoyon bo'lmoqda, bu albatta tarmoqni yanada barqarorlashuvini, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishni ko'payishiga, resurslardan unumli foydalanishga, yangi ish o'rinalining paydo bo'lishiga olib keladi va pirovardida qishloq xo'jaligini rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasto'rning eng muhim ustuvor yo'naliшlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida, "Biz bugun 2013 yilning yakunlari haqida gapirganda, avvalo, o'tgan yilda mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda mutanosiblikka erishgani, modernizatsiya va diversifikatsiya hisobidan yuqori sur'atlar bilan rivojlanganini qayd etamiz.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi – 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi – 14,8 foizga oshdi. Inflyatsiya darajasi prognoz ko'rsatkichidan past bo'ldi va 6,8 foizni tashkil etdi"¹, deb ta'kidladilar.

Ma'lumki, qishloq xo'jalik korxonalarini rivojlanib borishi bilan birga, ularning soni va ishlab chiqarishdagi salmog'i ortib bormoqda, albatta bunday mexanizmlarni joriy etilishi yoki qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash jarayoni sifat jihatidan yangi mahsulot olish uchun texnik yoki texnologiyalarni bevosita ishlab chiqarishda foydalanish, uning alohida tarkibiy qismlariga aylantirish

¹ 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliшlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasasi. /Xalq so'zi. 2014 yil 18-yanvar/

bo'yicha izchil harakatlar yig'indisi hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimiz qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishga bunday kompleks yondashish tashkil qilinmaganligi bois sohada modernizatsiyalash loyihalar bilan ishlash keng miqyosda joriy etilmagan. Bunga asosan qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari modernizatsiyalash jarayonga ko'rsatadigan ta'sir, modernizatsiyalashga jalb qilishning asosiy yo'naliishlari va ularni amalga oshirish stsenariylari, modernizatsiyalashni oshirish yo'llari, modernizatsiyalash faoliyatni, jarayonni, salohiyatni, tavakkalchilikni boshqarish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar etishmasligi sabab bo'lmoqda. Bunda shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlari fermer xo'jaliklar tomonidan etishtirilayotgan sharoitda fan-texnika yutuqlariga asoslangan modernizatsiyalash loyihalarning shakllanishi hamda mahsulot raqobatbardoshligini oshirish va shundan kelib chiqib, agrar siyosatni takomillashtirish muammolari etarlicha o'r ganilmaganligining ham ta'siri bor.

Shuning uchun ham sanab o'tilgan muammolarning nazariy va amaliy asoslarini o'r ganish va ular bo'yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqish mamlakat qishloq xo'jaligining bugungi va ertangi kunining dolzarb masalasi bo'lmoqda.

Shu munosabat bilan qishloq xo'jalik korxonalarini modernizatsiyalash munosabatlarini taxlil etish va tegishli xulosalar ishlab chiqish lozim.

Tadqiqot maqsadi – mamlakat qishloq xo'jalik korxonalarini modernizatsiyalash tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Tadqiqot jarayonida quyidagi vazifalarni hal etish belgilab olindi:

- qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash tushunchasini ilmiy-nazariy tavsifini asoslab berish;
- qishloq xo'jalik korxonalari rivojlanishining iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish;
- qishloq xo'jalik korxonalarining modernizatsiyalash faoliyati samaradorligini baholash;

- qishloq xo'jaligi korxonalarini modernizatsiyalashning asosiy yo'naliшlarini asoslash;
- qishloq xo'jalik korxonalarini modernizatsiyalashning istiqbollarini aniqlash;
- qishloq xo'jalik korxonalarining modernizatsiyalash bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti. Tadqiqot ob'ekti sifatida Yakkabog' "Oq-oltin" paxta tozalash ochiq hissadorlik jamiyati tanlangan.

Tadqiqot predmeti. Qishloq xo'jalik korxonalarini modernizatsiyalash bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tadqiqotning predmetini tashkil etadi.

Tadiqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot jarayonida umumlashtirilgan nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar mamlakatimiz qishloq xo'jalik korxonalarini modernizatsiyalash va tarmoqni rivojlantirishning strategik kontseptsiyasini ishlab chiqishda, mutasaddi muassasalarning dasturiy va tashkiliy faoliyatida keng qo'llanilishi hamda bitiruv malakaviy ishining asosiy g'oyalari mazkur yo'naliшdagи muammolarni chuqur tadqiq etishga bag'ishlangan kelajakdagi ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining hajmi, tarkibiy jihatdan kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan aadabiyotlar ro'yxatidan iborat.

K BOB. QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINI MODERNIZATSIYALASHNING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1.1. Qishloq xo'jaligi korxonalarini modernizatsiyalashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrning boshlarida iqtisodiy nazariya tadbirkor, firma va davlatni modernizatsiyalash jarayonining alohida unsurlari sifatida ta'riflashdan ularga murakkab tizimning o'zaro bog'liq bo'g'inlari sifatida qarashgacha bo'lgan murakkab yo'lni bosib o'tdi. Ayni paytda bu tizim modernizatsiyalashlarning asosiy manbasi sifatida fan, universitetlar va ilmiy markazlar bilan cheklangan yopiq tizim emas, balki milliy davlatlar doirasida, xo'jalik korxonalari tarmoqlarida va yirik korporatsiyalar hamda kichik kompaniyalarda yuz berayotgan iqtisodiy jarayonlarga uyg'unlashgan tizim ekanligi chuqur anglab etildi.

O'tgan asrning 80-yillarida fan-texnika o'zgarishlar sur'atlarining o'sishi, ilmiy echimlarga asoslangan ishlab chiqarish va xizmatlarning jadal rivojlanishi rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning jadallahuviga yangi turtki bo'ldi. Juhon ishlab chiqarishida muhim iqtisodiy resurslar sifatida ilmiy echimlar va modernizatsiyalashlardan foydalanish asosida o'sishning yangi yo'nalishi shakllana bordi.

Bugungi asosiy vazifa milliy modernizatsiyalash tizimni rivojlantirishning strategik maqsadlarini shakllantirishdan iborat.

Hozirgi zamon jahon iqtisodiy adabiyotlarida "modernizatsiyalash" ilmiy-texnika yutuqlariga erishish jarayonini yangi mahsulot va texnologiyalarga asoslangan haqiqiy jarayonga aylantirish omili sifatida talqin etilmoqda. Ularning fikricha, modernizatsiyalash texnika, ishlab chiqarish va tijorat tadbirlari jamlanmasi bo'lib, bozorga yangi uskunalarini kiritish hisoblanadi. Modernizatsiyalashning mazmuni bo'yicha boshqa talqinlar ham juda ko'p.

Yuqoridagilarga asoslanib, shunday xulosaga kelish mumkin: modernizatsiyalashning asosiy mazmuni o'zgarish, bosh vazifasi esa vazifaning o'zgarishi, demakdir.

Bir ijtimoiy-iqtisodiy tizimni ikkinchisi bilan almashtrishda anchagina yangilanishlar bo'lmoqda, ko'p tarmoqli iqtisodiyotni modernizatsiyalash o'tishi natijasida, modernizatsiyalash jarayoni jamiyat hayotiy faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohagagina modernizatsiyalash kiritish bilan cheklanib qolmaydi va modernizatsiyalash jarayoni pirovardida ishlab chiqarishdagi inqirozlarni bartaraf etib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi.

Respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadidagi asosiy chora-tadbirlar ham ushbu yo'nalishni taraqqiy etdirish orqali korxonalarning ishlab chiqarish samaradorligiga erishish uchun ishlatilmоqda. Tayyor mahsulotni chiqarishda korxonalar oldidagi birinchi vazifa mehnat resurslaridan, moddiy-texnika vositalari va moliyaviy vositalardan samarali foydalanish, bahoning foydadan ustunligini ta'minlash, ishlab chiqarish rentabelligini oshirish hisoblanadi.

Xom ashyo etishtiruvchilar industrial modernizatsiyalashda ishtirok etishi ularning mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirishiga imkon beradi. Shu bois, industrial modernizatsiyalashda xom ashyo etishtiruvchilarning ishtirok etishi bo'yicha mexanizmni yaratish, ishlab chiqarish rejasiga, shuningdek, tadqiqot ishlari rejasiga, ya'ni modernizatsiyalashning ilmiy ta'minotiga ushbu masala kiritilishi lozim. Shunday qilinsa, yana bir muhim masala hal etiladi: ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashda korxona ishtiroki yanada takomillashadi.

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga, shuningdek, qishloq xo'jalik korxonalari mahsulotlari eksporti doirasini kengaytirishga ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va xizmatlar bo'yicha muammolarni hal qilish orqali erishiladi. Shu bilan birga hozirgi davrda oziq-ovqat bilan ichki bozorni ta'minlashda ham davlat himoyasi zarur, shuningdek, davlat tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va ularning qayta ishlanganlariga o'zgaruvchan bahoni

qo'yish, er va soliq qonunlari, investitsiya kiritish uchun engilliklar berish orqali imkoniyatlar yaratiladi.

Qishloq xo'jaligini jadal va to'liq rivojlantirish uchun ishlab chiqarish modernizatsiyasini qo'llash talab qilinadi. Buning uchun er va mehnat resurslari imkoniyatlaridan to'liq foydalanish, qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish, parvarishlash texnologiyalarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, tarmoqning moddiy-texnika bazasi talab darajasida mustahkamlanishiga erishish zarur.

Bunda shuningdek, qishloq xo'jalik korxonalari ekinlari turlari bo'yicha mahsulot etishtirishga, mashina majmuasini yangilashga alohida ahamiyat berish lozim. Shuni hisobga olib, qishloq xo'jaligi mashinasozligi sanoatini modernizatsiyalash rivojlantirish masalasini qayta ko'rib chiqib, soha uchun zarur texnika vositalarining ma'lum qismini yaqin va uzoq xorijdan keltirish masalasini hal qilish lozim. Muammolardan yana biri qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish, bozor bilan bog'liq muammodir. Bu muammoning echilishi, davr talab qilayotganidek, yig'ib olingan mahsulotdan samarali foydalanish, uni samarali taqsimlash, qayta ishslash sanoatini kengaytirish, har xil iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni taqozo etadi. Bunga erishish esa, qishloq xo'jalik korxonalari mahsulotlari etishtirish samaradorligini, shuningdek, ichki bozordagi singari tashqi bozorda ham ularning raqobatbardoshligini ma'lum darajada oshiradi.

o`zbekistonning modernizatsiyalash tizimi xo'jalik korxonalari yuritishning yangi tizimiga ko'nikishi, avvalambor, tadbirkorlik sektori modernizatsiyalash faoliyati transformatsiyasini, ya'ni, «texnologik turtki» modelidan yangi mahsulotga talabni aniqlash modeliga o'tishda namoyon bo'ladi.

o`zbekiston iqtisodiyotining turli sektorlarida amalga oshirilayotgan xalqaro ilmiy-texnik va texnik hamkorlik, korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi, yangi texnologiyalar ichki bozorlarga kirib kelishiga ko'maklashadi.

Hozirda ko'p ilm-fan talab qiladigan va texnik jihatdan murakkab tarmoqlarning rivojlanishi yuqori darajada globallashish, jahon savdo-sotiq kanallari bo'yicha, transmilliy korporatsiyalarni global ishlab chiqarish va sotish tarmoqlari orqali texnologik yangiliklar tarqalishi bilan xarakterlanadi. Ko'p ilmiy echim talab qilinadigan ishlab chiqarishni avval eksport uchun, so'ngra ichki bozor uchun tashkil qilish ko'pgina mamlakatlar iqtisodiyoti yuksalishining asosiy omili bo'lmoqda.

1.2. Qishloq xo'jaligi korxonalarini modernizatsiyalashning o'ziga xos xususiyatlari

Qishloq xo'jalik korxonasining bozor iqtisodiga moslashish maqsadi tovar ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun barqaror ijtimoiy-iqtisodiy bazani yaratish, erkin agrar tadbirkorlik, resurslardan va er imkoniyatidan unumli foydalanish va qishloq xo'jaligi sohasini ekologik tenglamasini qo'llash asosida samarali shakllantirishda sharoit va omillarning o'zaro muvofiqligini ta'minlashdan iborat.

Hozirgi vaqtida iqtisodiyotning modernizatsiyalash imkoniyati yanada oshirish va shu asosda iqtisodiy o'sishning sifat ko'rinishiga o'tish muhim hisoblanadi. Bunda ishlab chiqaruvchilar bozor faoliyatining iqtisod zamonaviylashgan sharoitdagи yutuqlariga bevosita bog'liq innovatsion standartlarni birmuncha o'zlashtirishadi. U, o'z navbatida, ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash maqsadida aholi moddiy farovonligini ko'tarishga qaratilgan, moddiy talabni qondirish, ekologik ta'minot va ijtimoiy muhitni shakllantirishga yo'naltirilgan tadbirlarni targ'ib qiladi. Modernizatsiya sohasini shakllantirish masalalarini tadqiq qilish, loyiha institutsional mexanizmlarini o'zlashtirish, kelgusida iqtisodiy rivojlanish sur'atining bosh omili sifatida ilmiy-texnika yutuqlaridan foydalanish va davlat innovatsiya siyosatini qo'llash mutaxassislar, amaliyotchilar va ilmiy jamoa qiziqishini uyg'otadi.

Modernizatsiyalashga taalluqli, shuningdek, texnologiyani joriy qilish bo'yicha muammolarni nazariy o'rganish, innovatsion va ilmiy-texnika dasturlarini amaliy tarzda ishlab chiqish bo'yicha rejalar tuziladi.

Sohani rivojlantirish ishlab chiqarishni jadallashtirish va investitsiya muhiti, investitsiyalarning rivojlanish dinamikasiga bog'liq bo'ladi.

Modernizatsiyalash sohasi infratuzilma doimiy takomillashtiri-lishini talab qiladi, ya'ni hususiy biznesda past investitsiya faolligini oshirish, innovatsiya sohasiga kapital kiritishda, axborot va kredit to'siqlarini engib o'tishda davlat tarmoqni moliyalashiga zaruriyat oshadi. Modernizatsiyalash jarayonidagi iqtisodiy o'sish sur'ati va samaradorlikning doimiy ortib turishi albatta ijodiy imkoniyatlarga bog'liq bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida islohotlar tufayli xo'jalik yuritish va mulkchilik shakllari o'zgarishi, qishloq xo'jalik ekinlari tarkiblari o'zgartirilishi, mahsulotni qayta ishlash rivojlanganligi tarmoqda bozor munosabatlari me'yor darajasida deyish mumkin. Qishloq xo'jalik tovarlari etishtiruvchilari ham hamon savdoni o'rganmagan. Shuning o'zi ham qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligi pastligini va qishloq xo'jalik korxonasi raqobat sharoitida ishlashga tayyor emasligini ko'rsatadi.

Ichki bozorda intensiv raqobat bo'lmasa, tovar ishlab chiqaruvchilar xorij bozorlariga chiqa olmaydi. Buning uchun yangilik, xususan, yangi texnologiyalar kiritish, mehnat unumdarligini oshirish va iqtisodiy tarmoqni modernizatsiyalash usulida rivojlantirishga o'tish talab qilinadi. Bu bo'shliqni to'ldirish uchun nazarimizda, uchta masalani hal qilish lozim:

- respublika, viloyat va tuman miqyosida qishloq tovar mahsuloti ishlab chiqaruvchilarining, bozor kon'yunkturasi bo'yicha resurslar bozori, qishloq xo'jalik tovariga bo'lgan talab, raqobatbardosh mahsulotlar navlari urug'larini etishtirish, zotli mol, texnologiya, transport vositalari, ichki va tashqi bozorga taalluqli boshqa axborotlar bilan ta'minlaydigan axborot xizmatini tuzish va takomillashtirish;

- O`zbekiston standartlarini jahon standartlariga moslashtirish bo`yicha ishslash, standartlashni takomillashtirish;
- ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, qishloq xo`jalik mahsulotini etishtirishda tor ixtisoslashtirishga o'tish.

Mahsulotga bo`lgan talabdan kelib chiqib, tarmoqqa to`la va qisman raqobatbardoshlikni oshirish bo`yicha tadbirlar zarur. Mahsulotga bo`lgan talabning o'sishi foydani ta'minlab, tarmoqqa yangi ishlab chiqaruvchilarni jalgiladi. Sof raqobat sharoitida iqtisodiyot iste'molchini talabi bo`yicha ta'minlay olmasligi yoki yangi tovarlarni etarli darajada iste'molga chiqara olmasligi mumkin. Buning o'ziga xos statistik va dinamik jihatlari bor. Sof raqobat mahsulotlarni standartlashtirishni talab qiladi. Shundagina bozorning boshqa tarmoqlari kabi masalan, monopol raqobat (sof) oligopol tarzda – har bir mahsulot sifati, turi, yo'nalishi bo`yicha farqlanadi. Monopol raqobat o`zbekiston qishloq xo`jaligi tarmoqlariga mos keladi, ya'ni mahsulot sifatini oshirish ma'lum darajada qiyin kechadigan omil hisoblanadi. Shuni hisobga olib, mahsulot savdosida monopolizmdan voz kechish lozim, raqobat iste'molchilar orasida ham bo'lshi kerak, negaki tovar ishlab chiqaruvchilarda ham iste'molchilarni tanlash imkoniyati bo'lsin. Xususiy sektor rivojlanishi bilan ularning iste'molchilari sifatni oshirishda nafaqat ushlab turuvchi omil hisoblanadi, shuningdek, mahsulot assortimentini kengaytirib, hajmini oshirishi ham mumkin.

Yuqoridagilarni hisobga olib, iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish orqali kelajakda agrotizimni yuqori texnologiya asosida rivojlantirgan holda iqtisodiy qonunchilikka muvofiq agrar sektorda islohotlarni chuqurlashtirish zarur; mahsulot assortimentining ma'lum qismi va texnologiyani o'zgartirish, mahsulot narxining pasayishi yoki foydali samara yangi xarajatlar uchun imkoniyat hisoblanadi.

Iqtisodiyotni global rivojlantirish qishloq xo`jalik mahsulotlarining bozordagi o'rmini oshirish uchun ishlab chiqarish va qayta ishslashga yangi modernizatsiyalangan texnologiyalar yordamida yondashish talab qilinadi.

Tarmoqning bosh vazifasi aholining iste'mol talabini qondirish, ichki va tashqi bozorni ta'minlash va davlat mavqeiga javob beradigan oziq-ovqat ta'minotidan, odatda, uning targ'iboti, tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlaridan foydalangan holda aholini oziq-ovqat bilan uzlusiz ta'minlashi maqsadida davlatning strategik va taktik ta'sirini aniqlashdan iborat.

II BOB. QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINI HOZIRGI HOLATI HAMDA IQTISODIY SAMARADORLIGINING TAXLILI

2.1. Qishloq xo'jaligi korxonalarini hozirgi holatining taxlili

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi mamlakatimiz iqtisodiyotining etakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari, sanoatni xom ashyo bilan ta'minlash hamda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining ma'lum bir qismi shu soha zimmasida ekanligini inobatga olsak, uning respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida naqadar muhim o'rinn tutishi ayon bo'ladi. Shu bois, Yurtboshimiz rahnamoligida mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab qishloq xo'jaligida keng ko'lamli hamda izchil islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Istiqlol yillarda qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich joriy etishning me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratish va uni takomillashtirib borishga alohida e'tibor qaratildi. o`zbekiston Respublikasining Er kodeksi, "Fermer xo'jaligi to'g'risida", "Dehqon xo'jaligi to'g'risida", "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirish hamda qishloqda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi.

Sohaning barcha tarmoqlarida turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllarining rivojlanishi, mahsulot ishlab chiqarish tarkibida nodavlat sektorda faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik sub'ektlari ulushining yuqori bo'lishiga zamin yaratmoqda. Natijada, keyingi yillarda qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotida ularning ulushi qariyb 100 foizga etdi.

Xo'jalik yuritishning eng samarali, taraqqiy etgan davlatlar tajribasida o'zini har tomonlama oqlagan fermerlik harakatiga o'tilishi esa soha rivojida yangi davrni boshlab berdi.

Aytish joizki, fermer xo'jaliklarining er-suv, moddiy-texnika va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda rag'batlantiruvchi omillar

paydo bo'ldi. Fermer xo'jaliklari faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarning yaratilganligi ularning qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarining muntazam ortib borishiga sabab bo'lyapti.

Ayniqsa, keyingi yillarda fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ekin turlarini hududlar tabiiy-iqlim xususiyatlarini hisobga olgan holda, mamlakat ehtiyojlari va bozor talablari asosida joylashtirish, tuproq unumdorligini oshirish, erlearning meliorativ holatini yaxshilash hamda har bir hektar maydon hisobiga olinadigan foyda miqdorini ko'paytirishga qaratilgan samarali tizimlar joriy etilmoqda.

Masalan, so'nggi yillarda paxta maydonlarining qisqartirilishi hisobiga donli, sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarining ekilishi, bog' va uzumzor maydonlarning kengaytirilishi natijasida, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ham aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, ichki bozor to'kinchiligi va narx-navoning mavsumiy barqarorligiga erishilyapti.

Biz bugun 2013-yilning yakunlari haqida gapirganda, avvalo, o'tgan yilda mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda mutanosiblikka erishgani, modernizatsiya va diversifikatsiya hisobidan yuqori sur'atlar bilan rivojlanganini qayd etamiz.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi – 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi – 14,8 foizga oshdi. Inflyatsiya darajasi prognoz ko'rsatkichidan past bo'ldi va 6,8 foizni tashkil etdi.

O'tgan yil yakunlariga ko'ra, tashqi davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 17 foizni, eksport hajmiga nisbatan qariyb 60 foizni tashkil etdi. Bu avvalambor xorijiy investitsiyalar va umuman, chetdan qarz olish masalasiga chuqur va har tomonlama puxta o'ylab yondashish natijasidir.

2013-yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 21,5 foizdan 20,5 foizga, jismoniy shaxslar uchun daromad solig'inинг eng kam stavkasi 9 foizdan 8

foizga tushirilganiga qaramasdan, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foiz profitsit bilan bajarildi.

Sohada amalga oshirilayotgan bu kabi tizimli tadbirlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining barqaror o'sishini ta'minlamoqda. Jumladan, don ishlab chiqarish hajmi 2013 yilda 2000 yilga nisbatan 1,7 marta, kartoshka ishlab chiqarish 2,8 marta, poliz 3,1 marta, sabzavot 2,9 marta, meva va rezavorlar 2,6 marta va uzum 1,9 martaga ortdi. 2013 yilning dastlabki 6 oyida erishilgan ko'rsatkichlar, jumladan, joriy yilda g'alladan rekord darajada hosil olinganligi yil yakuni bo'yicha natijalarning bundan ham salmoqli bo'lishidan darak bermoqda.

Buni avvalambor iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlarning, mamlakatimiz bir paytlardagi agrar respublikadan bosqichma-bosqich ravishda sanoati rivojlangan zamonaviy davlatga aylanib borayotganining yaqqol tasdig'i sifatida qabul qilishimiz darkor.

Qishloq xo'jaligining o'zida keng ko'lamli o'zgarishlar va sifat jihatdan yangilanishlar yuz bermoqda.

Yurtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o'ylangan siyosat olib borilayotgani eng muhim xomashyo va eksportbop mahsulot bo'lmish paxta yetishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishni bir necha barobar ko'paytirish imkonini berdi. Eng muhimi, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlashga zamin tug'dirdi, kerak bo'lsa, ularni chet mamlakatlarga eksport qilishga imkon bermoqda.

Bugungi fermer xo'jaliklari samarali faoliyat yuritish uchun o'z ixtiyorida ijara asosidagi etarlicha ekin maydonlariga ega bo'lgan, yuksak samarali zamonaviy texnika bilan ta'minlangan, ilg'or texnologiyalarni puxta egallagan yirik xo'jaliklardir. Muxtasar aytganda, ular qishloqlarimizning tayanch ustunidir.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish bilan birga, ularni chuqur qayta ishlash, qurilish ishlarini amalga oshirish va qishloq aholisiga xizmat ko'rsatish kabi yo'naliishlarda samarali faoliyat ko'rsatmoqda va o'z istiqbolini topmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda bunday fermer xo'jaliklarining soni 18 mingdan ziyodni tashkil etmoqda.

Yurtimizda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning kelajagi haqida gapirganda, er va suv resurslari bo'yicha imkoniyatlarimiz cheklanganini hisobga olib, bu borada yagona to'g'ri yo'l – qishloq xo'jaligini intensiv asosda rivojlantirish, erlearning meliorativ holatini tubdan yaxshilash, seleksiya ishlarini chuqurlashtirish, yuksak samarali zamонави agrotexnologiyalarni joriy etish va suvdan oqilona foydalanish, eng muhimi – dehqon va fermerlearning dardi bilan yashash, desam, o'ylaymanki, barchangiz mening fikrimga qo'shilasiz.

Faqat erga mehr, uning unumdorligini oshirish va birinchi navbatda dehqon va fermerga doimiy e'tibor, ularning manfaati haqida g'amxo'rlik qilish – bu qishloqni va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish bo'yicha biz tanlagan yo'ldir.

O'tgan yili 2013-2017 yillarda sug'oriladigan erlearning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar davlat dasturini qabul qilindi. Iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirishda xizmat ko'rsatish sohasi tobora katta rol o'ynamoqda. Biz o'tgan yilning boshida 2013-2016-yillarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar dasturini tasdiqladik. 2013-yilda xizmat ko'rsatish bo'yicha 13 mingdan ortiq korxona, jumladan, savdo-maishiy komplekslar, minibanklar va sug'urta kompaniyalar filiallari va boshqa korxonalar tashkil etildi.

Ma'lumki, aholining o'sishi va sanoatning jadal sur'atlar bilan rivojlanib borishi natijasida suv resurslari hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lган talab ham o'z-o'zidan ortadi. Er resurslarining cheklanganligi va suvning tanqisligi ulardan tejamli, oqilona foydalanishni, erlearning meliorativ holati va unumdorligini yaxshilash orqali ekinlar hosildorligini oshirishni taqozo

etmoqda. Bu borada, sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan 2008–2013 yillarga mo'ljallangan davlat dasturi doirasida moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi mablag'lari hisobidan meliorativ ob'ektlarni ta'mirlash va tiklash ishlari jadal olib borildi.

Jamg'arma hisobidan 2013 yilda meliorativ ob'ektlarni rekonstruktsiya qilish, qurish hamda ta'mirlash va tiklash ishlari amalaga oshirilib, 260 ming gektardan ziyod sug'oriladigan erlarning holati yaxshilandi. Umuman olganda, 2008-2013 yillarda ushbu tadbirlar natijasida jami 1 mln. 200 ming hektar maydonning meliorativ holatida ijobiy o'zgarish ko'zga tashlandi.

Qishloq xo'jaligining yana bir muhim tarmog'i – chorvachilik sohasida ham qator yutuqlarga erishilmoqda. 2013 yil yakuni bilan barcha toifadagi xo'jaliklarda qoramollar bosh soni 2012 yilga nisbatan 5,2 foizga, qo'y va echkilar 105,8 foizga, parrandalar bosh soni 111,1 foizga ko'paydi. Natijada, tirik vaznda go'sht ishlab chiqarish 2012 yilga nisbatan 107, sut 108, tuxum 113, jun 108, hamda qorako'l teri ishlab chiqarish 109 foizga ortdi.

Respublikada naslchilik-seleksiya ishlari bilan shug'ullanuvchi 448 ta xo'jalik faoliyat yuritmoqda. Ushbu xo'jaliklarda qoramollarning ettita zoti bo'yicha turli yo'naliishlarda ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, 2591 ta ixtisoslashtirilgan veterinariya punktlari faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ishlarning barchasi aholi, dehqon va fermer xo'jaliklari uchun davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan qulaylik va imkoniyatlardir.

Keyingi yillarda qishloq xo'jaligiga lizing asosida etkazib berilayotgan texnikalar turi va soni ham ortib bormoqda. Lizing asosida sotilayotgan texnikalar qatoriga traktor, kombayn, chigit ekish seyalkalari va chekanka qiluvchi agregatlarning o'nlab yangi modellari kiritildi. Lizing asosida qishloq xo'jaligi texnikalari etkazib berish 2013 yilda 2010 yilga nisbatan qariyb ikki martaga ortdi.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 oktyabrda e'lon qilingan "O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni

yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni mamlakatimizda fermer xo'jaliklarining iqtisodiy mustaqilligi va moliyaviy barqarorligini oshirish uchun yaratilgan shart-sharoitlarni yanada kengaytirish, yangi ishchi o'rnlari yaratish va aholi farovonligini yuksaltirishda fermer xo'jaliklarining rolini oshirish bilan bog'liq barcha masalalarni qamrab olganligini qayd etib o'tish joiz. Mazkur farmon agrar sohada etakchi kuchga aylanib borayotgan fermerlik harakatining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga mustahkam zamin yaratdi. Bir so'z bilan aytganda, fermer xo'jaliklarining iqtisodiy mustaqilligi va moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning er-suv resurslaridan oqilona foydalanishi, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishini rag'batlantirish kelgusida ham mazkur soha rivojlanishining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

2.2. Qishloq xo'jaligi korxonalarini modernizatsiyalashning iqtisodiy samaradorligining tahlili

Hozirgi sharoitda qishloq xo'jaligi rivojlanishini yanada jadallashtirishning eng dolzarb muammolaridan biri tarmoq samaradorligini oshirishdir. Ishlab chiqarish samaradorligi murakkab iqtisodiy kategoriya bo'lib, unda iqtisodiy qonunlarning harakatlari o'z ifodasini topadi va korxona faoliyatining muhim tomoni – natijaviylici yuzaga keladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligini xarakterlashda natural va qiymat ko'rsatkichlari tizimidan foydalaniladi. Samaradorlikning natural ko'rsatkichlari qishloq xo'jaligi o'simliklari hosildorligi va hayvonlar mahsuldarligi hisoblanadi. Natural ko'rsatkichlar qiymat ko'rsatkichlarni: yalpi va tovar mahsulot, yalpi va sof daromad, foyda va ishlab chiqarish rentabelligini hisoblashda asos sanaladi.

Yalpi mahsulot – ma'lum davr mobaynida yaratilgan barcha qishloq xo'jaligi mahsulotlarining puldagi ifodasi, tovar mahsulot esa, sotilgan mahsulotdir.

Yalpi daromad (YaD) –yalpi mahsulot (YaM) qiymati bilan undagi moddiy sarflar (Ms) orasidagi farqdir:

$$\mathcal{Y}\Delta = \mathcal{Y}M - Mc$$

Sof daromad (SD) yalpi mahsulot qiymatidan ishlab chiqarish xarjatlari yoki uning tannarxini ayirib tashlash yo'li bilan aniqlanadi:

$$C\Delta = \mathcal{Y}M - Tm$$

Sof daromad hajmini yalpi daromad qiymatining ish haqiga to'lovini (Hi) ayirib ham hisoblash mumkin:


$$C\Delta = \mathcal{Y}\Delta - Xu$$

Iqtisodiy adabiyotlarda yaratilgan (T) va realizatsiya qilingan (T') sof daromad farqlanadi. Sof daromadning realizatsiya qilingan qismi korxona foydasi hajmiga to'g'ri keladi. Demak, agar sof daromadni yalpi mahsulotni taqsimlash orqali topadigan bo'lsak, unda foyda (F) mahsulotni sotishdan keladigan tushum (Ts) bilan uning to'liq tannarxi (Ts) ayirmasi sifatida hisoblanadi.

$$\Phi = Tc - T\kappa$$

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini umumlashtiruvchi natija rentabellikdir. Rentabellik darajasi (R) foydaning mahsulotning to'liq (tijorat) tannarxiga nisbatan % dagi qiymati sifatida hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar butun qishloq xo'jaligining samaradorligini xarakterlashda ham, tarmoq samaradorligini ifodalashda alohida mahsulot bo'yicha ham qo'llaniladi.

Qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasi sohaga etarli ahamiyat berilmaganligi, texnika, o'g'it, kapital mablag'lar kam ajratilganligi tufayli hozirgi holatga tushdi. Chunonchi, keyingi yillarda qishloq xo'jaligiga xalq xo'jaligiga sarf etilgan kapital mablag'larning 30-32%i ajratilgan.



1-rasm. Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari.

Agrosanoat ishlab chiqarishi samaradorligi pastligi, rivojlanmaganligiga asosiy sabablardan biri qishloq xo'jaligining alohida sohalarini moddiy-texnika bilan ta'minlash jarayonidagi nomutanosiblik, soha tarmoqlarining alohida mahkama va vazirliklarga bo'y sunishi, ular o'rtasidagi o'zaro nomuvofiq aloqani bartaraf etish uchun tarmoqlararo yagona takror ishlab chiqarishni rivojlantirish zanjirining yo'qligidir. Masalan, saqlash va qayta ishslash sanoati rivojlanmaganligi, quvvati pastligi natijasida har yili o'rtacha etishtirilgan go'shtning-15, sutning-20, meva, sabzavot va kartoshkaning 40% ga yaqini, don va paxtaning 10% dan ortig'i isrof bo'lmoqda.

Buning asosiy sababi shundaki, soha tarmoqlari o'rtasidagi aloqalar o'zaro iqtisodiy manfaatdorlik asosida yo'lga qo'yilmagan, moddiy-texnika bazasi etarli darajada rivojlantirilmagan. Bundan tashqari qishloq xo'jaligiga etkazib

berilayotgan mashina, traktor va boshqa texnika vositalarining, mineral o'g'itlarning sifati past. Shu sababli o'z miqdoriga nisbatan kutilgan samarani bermayapti. Ularning samaradorligi pastligiga traktor va texnikalarga texnik xizmat ko'rsatish, ularga ehtiyot qismlarni etkazib berish, joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshiruvchi korxonalar etarli darajada rivojlanmaganligi ham sabab bo'lmoqda.

Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarish jarayonida ekologik jihatdan zararli texnika va materiallar ishlab chiqarish hamda ishlatishga qarshi ma'muriy va iqtisodiy to'siq yo'qligi sababli, tuproq tarkibiga salbiy ta'sir qiladigan og'ir va zararli traktor va texnika vositalarini etkazib berish to'xtatilgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish natijalari ob-havo va iqlim sharoitlariga qarab, yillar bo'yicha o'zgarib turadi. Shu sababli, bu sohada takror ishlab chiqarishning bir maromda kechishini ta'minlash ko'pincha fondlarni barpo etish va saqlab turishni talab etadi. Shuning uchun favqulodda hollarda ishlatish uchun oziqa, urug'lik va ish haqi zahira fondlarini tashkil etish lozim. Keyingi 30-40 yillar ichida rivojlangan mamalakatlar qishloq xo'jaligida ko'plab ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar ro'y bergan. Qishloq xo'jaligi hozirgi zamонавиу texnikasi va biologiya fani yutuqlarini qo'llashga asoslangan industrial tovar ishlab chiqarish vositalari etkazib beruvchi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarini tegishli savdo bo'g'imlarini birlashtiruvchi yagona agrobiznes - agrosanoat majmui tizimiga birlashib, integratsiyalashdi.

Bozorni boshqarish, dastlab bevosita yuqori pirovard natjalarga erishish – qishloq xo'jaligi va agrosanoat majmui tarkibidagi boshqa tarmoqlar o'ptasida balanslashgan mutanosiblikni o'rnatishdir. Shu munosabat bilan davlat boshqaruv idoralari va agrosanoat tarkibidagi xo'jalik(korxona, tashkilot)lar ishchi apparati xodimlarining barcha boshqaruv bosqichlaridagi o'rni ortib bordi. Bozor munosabatlarini tartibga solish rejali taqsimot tizimi sharoitida ishlab chiqarishni boshqarishga nisbatan murakkab. Shuning uchun boshqarish

idoralari zamonaviy vazifa va talablarga mos keladigan tashkiliy tuzilma va mutaxassislar tarkibi bo'yicha javob bermog'i, rahbar xodimlar ishchanlik va malakaviy qobiliyatları tufayli iqtisodiy sub'ektlar faoliyatini muvofiqlashtirish muammolarini echish san'atiga ega bo'lmgan lozim.

Davlat boshqaruv idoralarining agrosanoat majmuida xo'jalik mexanizmini tartibga solishdagi roli bevosita iqtisodiy dastaklar va moddiy rag'batlantirish orqali o'sib boradi. Ta'kidlash joizki, davlat tomonidan boshqarishni tartibga solish, nazarimizda, ma'lum vazifadan tashkil topmog'i lozim. Ular quyidagilarda iborat:

- byudjet, kredit resurslaridan va davlat tomonidan xo'jaliklarga beriladigan yordam mablag'laridan oqilona foydalanish;
- qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlar o'rtaisdagi baholar mutanosibligini saqlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- respublika va uning mintaqalari bo'yicha oziq-ovqat fondini yaratish, qishloq tovar ishlab chiqaruvchilari uchun marketing xizmatini tashkil etish;
- samarali investitsiya, innovatsiya va institutsional siyosatni olib borish.

Hozirgi paytda agrosanoat majmuini boshqarishda qator kamchiliklar mavjud, Xususan:

- agrosanoat ishlab chiqarishini tartibga solishda ayniqla, tarmoqlararo munosabatlarga ta'sir etishda va qishloq xo'jaligi hamda sanoat tarmoqlari o'rtaisdagi ekvivalent almashuvida davlatning ishtirok etmayotganligi;
- islohotlarni joriy etishda mintaqaviy xususiyatlar va mavjud qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tuzilmasi hisobga olinmayotganligi;
- agrar sohani qayta tashkil etishda ijtimoiy omillarni, xususan, mehnatga qobiliyatli xodimlarni ish bilan ta'minlashga qaratilgan tadbirlarning hayotga sekin joriy etilayotganligi.

Xorij va mamlakatimizda to'plangan tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, bozorning shakllanish jarayoni o'sib borishi bilan xo'jalik sub'ektlari tomonidan iqtisodiyotni boshqarish omillarining ahamiyati ham ortib boradi. Ko'pgina mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, bozor munosabatlari rivojlanishi

bilan davlatning agrosanoat tizimi va uning alohida tarmoqlariga maqsadga muvofiq ravishda ta'sir etish zarurati saqlanib qoladi.

Bozor iqtisodiga o'tishning hozirgi bosqichida respublikamiz agrar sohasini boshqarishda davlat boshqaruving ahamiyati katta. Shuning uchun davlat idoralari xo'jalik ishlariga aralashmaslik siyosatidan chekinib, agrar sohani va agrosanoat majmui boshqa tarmoqlarini rivojlantirishning asosiy yo'naliшlarini belgilab bermog'i lozim.

Ta'kidlash joizki, qo'shimcha moddiy, mehnat va moliya resurslarini jalgilasdan, faqat boshqarish tizimini tashkil etishni tartibga solish orqali katta samaraga erishish mumkin. Agrosanoat majmui tizimini tashkil etishning muhim sharti, bu jarayonni maqsadga muvofiq rejali va izchil davom ettirishdir.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlari, xususan, dehqon xo'jaliklari turli rivojlanish bosqichlarini bosib o'tib, turli institutsional muhit sharoitida o'zining yashovchanligini ko'rsatgan shaxsiy yordamchi xo'jaliklari o'mida vujudga kelgan xo'jalik yuritish shakli hisoblanadi. Aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari xalq xo'jaligining turli sohalarida band bo'lganlar uchun ishdan bo'sh vaqtida mehnat resurslaridan samarali foydalanish vazifasini bajargan bo'lsa, dehqon xo'jaligi nafaqat ishdan bo'sh vaqtadan samarali foydalanish, balki kichik miqyosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish bilan shug'ullanuvchi kichik tadbirkorlik sub'ektidir. Shu bilan birga dehqon xo'jaligi uy xo'jaligining faoliyat doirasida olib boriladi va oila biznesini tashkil etish usuli hisoblanadi. Bu jihatdan dehqon xo'jaligining vazifasi oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarish va sotish orqali inson kapitalini ro'yobga chiqarishda namoyon bo'ladi. Uy xo'jaligi hamda firma faoliyati doirasida yuzaga keladigan hukmronlik munosabatlari dehqon xo'jaligiga ham xosdir. Dehqon xo'jaligi oila a'zolari o'z hatti-harakatlari ustidan nazoratni oila boshlig'i hisoblangan shaxsga ishonib topshiradilar.

Demak, bugungi kunda dehqon xo'jaligi o'zining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga ko'ra iqtisodiy faoliyatining asosiy sub'ektlaridan hisoblangan-uy

xo'jaligi va firmaning ayrim jihatlarini o'zida namoyon qiladi va inson kapitalini realizatsiya qilishning muhim yo'nalishi sifatida daromadlarni ko'paytirish hamda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda, aholi turmush darajasini ko'tarishda katta ahamiyat kab etadi.

Ma'lumki, tovarliligi yuqori bo'lgan mahsulotlarni erta etishtirish ulardan ko'proq daromad olishga olib keladi. Bu ayniqsa, janubiy hududlarda joylashgan dehqon xo'jaliklari uchun muhimdir. Dehqon xo'jaliklari uchun nafaqat mahsulotni erta etishitirish balki erta etishtirilgan mahsulotni sotish ham katta xarajatlarni talab qiladi. Erta etishtirilgan mahsulotlarni sotishda mablag' etishmasligi bois etishtirilgan mahsulotning 50 foizigacha bo'lgan qismi vositachilarga sotib yuboriladi. Hozirgi kunda dehqon xo'jaliklaridagi mavjud muammolar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- dehqon xo'jaliklarining mineral o'g'it va o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari, yonilg'i moylash materiallari va texnika vositalariga bo'lgan haqiqiy talabni to'liq qondirilmayotganligi va yaxshi o'rganilmaganligi;
- dehqon xo'jaliklari chorvadorlikda etakchi mavqega ega bo'lishiga qaramasdan mahsuldorlik darajasi unchalik yuqori emas;
- qayta ishlovchi sanoat korxonalari bilan go'sht va sut sotib olishning samarali tizimi yo'lga qo'yilmagan;
- dehqon xo'jaliklarida bozor talabiga mos ravishda mahsulot etishtirishga ma'lum ma'noda erishilayotgan bo'lishiga qaramasdan, mahsulotni sotish va qayta ishslash yaxshi yo'lga qo'yilmagan.

Shunday holatlar ham uchrab turadiki, dehqon o'zi etishtirgan mahsulotni bozorda past narxda hatto tannarxidan ham past bahoda sotishga majbur. Bunday holatni bartaraf etish uchun dehqonlarning kooperatsiya orqali birlashish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Bunda asosiy e'tibor tarmoq va tarmoqlararo tarkibiy tuzilmalar tashkil etish orqali dehqon xo'jaliklarining moddiy-texnika resurslari, mineral o'g'itlar, yonilg'i-moylash vositalari hamda ishlab chiqarish va texnika, servis va maslahat xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish va qishloq

xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish hajmini oshirishga e'tibor qaratish lozim. Bu maqsadlar qishloqda xususiy tadbirkorlikni tashkil etish va rivojlantirish maqsadlariga mos kelishi lozim. Bunda asosiy e'tibor qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qodirish, servis xizmatini ko'rsatish tizimini intensiv rivojlantirish hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirishga qaratilishi lozim. Ko'pgina hollarda dehqon xo'jaligi bozor konyukturasi, talab va taklif, raqobat, bozor narx navolari haqida atroficha ma'lumotga ega bo'lishi, uning bilim va axborot bilan ta'minlanganlik darajasiga juda ham pastligicha qolmoqda. Buning natijasida ba'zi o'rganilgan dehqon xo'jaliklarida sotish xarajati mahsulot bahosining 25 foizini, jami xarajatlari tarkibida esa sotish xarajatlari 60 foizdan ortig'ini tashkil etmoqda.

Albatta, mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni yanada oshirish imkoniyatlari mavjud va bu imkoniyatlardan samarali foydalanish hisobiga etishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini nafaqat mamlakatimiz aholisini tuliq ta'minlash, balki kelgusida qishloq xo'jaligi mahsulotlari qushni mamlakatlarga yoki MDH davlatlariga eksport qilish imkoniyatlari etarli darajada mavjud.

Endi "Oq-oltin" paxta tozalash ochiq aktsiyadorlik jamiyatining iqtisodiy va moliyaviy faoliyatini tahlilini ko'rib chiqamiz. (2-jadval).

2-jadval.
"Oq-oltin" paxta tozalash ochiq aktsiyadorlik jamiyatida 2013 yil 4-chorak moboynida qilingan xarajatlar to'g'risida MA 'L U M O T

T/r	Yozuv mazmuni	So'mmasi
1	Ish xaki (korxona)	349951,0
2	25 % ajratma	87488,0
3	Paxta xom-ashyosi	9523255,0
4	Urov materiallari	350859,0
6	Extiyot qismlar	409614,0

7	Elektr energiya	163874,0
8	Gaz	26971,0
9	Transport xarajati	30505,0
10	Yo.M.M.	31881,0
11	«Kuchlanish» KK (elektr kabellari utkazish)	15570,0
12	Amartizatsiya	60700,0
13	Inventar hisobdan chikarildi	23090,0
14	Ozik-ovkat uchun	33967,0
	Jami:	11107725,0
	Tayyorlov xarajatlari	
1	Ish xaki (punkt)	318514,0
2	25 % ajratma	79629,0
3	Amartizatsiya (punkt)	32201,0
4	Extiyot qismlar (punkt)	25548,0
5	Elektr energiya (punkt)	37770,0
6	Fermer xujaliklari tul-n transport xarajati	105452,0
7	Yo.M.M.	
8	Transport xarajati	25238,0
9	Inventar hisobdan chikarildi	
10	Ozik-ovkat uchun	47386,0
	Jami:	671738,0
	Hammasi:	11779463,0

Ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki 2013 yilda 4-chorak mobaynida qilingan xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, jami 671738,0 ming so'mlik xarajatlar qilingan umumiyl holda olinganda 11779463,0 ming so'mlik xarajatlarni tashkil etmoqda.

3-jadval.
“Oq-oltin” paxta tozalash ochiq aktsiyadorlik jamiyatida hisobot yilidagi to’langan soliq to’lovlar tahlili (m.s)

Ko'rsatkichlar nomi	Hisob buyicha to'lanishi k-k	Hakikatda to'langan	Farqi
Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda)	105 809	192 385	86 576
Jismoniy shaxslardan	140 172	111 100	-29 072
<i>Shu jumladan:</i> jamg'arib boriladigan pensiyaga ajratma	13 650	11 667	-1 983
rivojlantirish solig'i	5 267	6 942	1 675
Qo'shilgan qiymat solig'i	749 605	1 733 147	983 542

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 441	550	-891
Yuridik shaxslar mol-mulki solig'i	133 550	82 471	-51 079
Yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i	80 786	113 088	32 302
Boshqa soliqlar		25 000	25 000
Yul jamg'armasiga majburiy to'lov 1,4 %	232 452	98 000	-134 452
Byudjetdan tashkari pensiya jamg'armasiga majburiy to'lov 6,0 %+1%	78 730	69 233	-9 497
Maktab ta'limi jamg'armasiga majburiy to'lov 0,5 %	83 019	16 000	-67 019
Yagona ijtimoiy to'lov 25 %	328 041	48 787	-279 254
Pensiya jamg'armasiga ajratma 1,6 %	265 660	187 330	-78 330
byudjet to'lovlarini kechiktirganlik uchun molyaviy jazolar	388 921	4 626	-384 295
Jami byudjet to'lovlar so'mmasi (280dan 480 gacha, 291 satrdan tashkari)	2 593 453	2 688 659	95 206

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, "Oq-oltin" paxta tozalash ochiq aktsiyadorlik jamiyatida hisobot yilidagi to'langan soliq to'lovlar miqdori yuridik shaxslardan olinadigan daromad 86 576 ming so'mga ortganligini ko'rish mumkin. Biroq, jismoniy shaxslardan jamg'arib boriladigan pensiyaga ajratmalar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yuridik shaxslar mol-mulki solig'i, yul jamg'armasiga majburiy to'lovlar miqdori, byudjetdan tashkari pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlar, maktab ta'limi jamg'armasiga majburiy to'lov, yagona ijtimoiy to'lov, pensiya jamg'armasiga ajratma miqdorlari kamaygan, albatta kelgusida bu kabi holatlardan samarali yo'llarni izlash va kelgusida bu holatlarni bartaraf etish chora va tadbirlarini ishlab chiqish zarur.

4-jadval.

“Oq-oltin” paxta tozalash ochiq aktsiyadorlik jamiyatining debitor va kreditor qarzdorligi to’g’risida ma’lumotnoma

Debitor va kreditor qarzdorlik to’g’risida

1 yanvar 2013 y

(ming sum)

№		Umumiylar qarzdorlik	
		debitor qarzdorlik	kreditor qarzdorlik
1	2	3	4
1	Qishloq va suv xo’jaligi	10 000,0	32 120,0
2	O’zpaxtasanoat	145 592,0	12 596 366,0
3	O’zyogmoytamakisisanoat		
4	O’zengilsanoat		
5	O’zavtotrans		493 267,0
6	O’zneftgaz		215 995,0
7	O’zenergo		57 630,0
8	Aloka vazirligi		
9	o`zbekiston temir yullari		
10	Byudjet bilan x-kitob		
11	Ish haqi		
12	Ijtimoiy ta’milot		
13	Yul fondi		
14	Tashki iqtisodiy aloqalar		
15	Moliya vazir fond		
16	Xususiy firma,MChJ, OAJ	136 747,0	520 667,0
17	Paxtakor tola baza		
18	Ichki ishlar		
19	Kasaba uyushmasi		
20	O’zdon mahsulot		8 820,0
21	Mudofaa vazirligi		
22	GAVK Uzmarkazimpeks		
23	GAVK Uzprmommashimpeks		
24	GAVK Uzinterimpeks		
25	Markaz sanoat eksport		
26	AOA Agrotaminot -BS		
27	Boshqalar		
	Jami	292 339,0	13 924 865,0

4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, "Oq-oltin" paxta tozalash ochiq aktsiyadorlik jamiyatining debitor va kreditor qarzdorligi to'g'risida ma'lumotnomaga bo'yicha qishloq va suv xo'jaligi 10 000,0 ming so'mlik, O'zpaxtasanoat 145 592,0 ming so'mlik, xususiy firma, MChJ, OAJlaridan 136 747,0 ming so'mlik, jami 292 339,0 ming so'mlik debitor qarzdorlik mavjudligi hamda Qishloq va suv xo'jaligidan 32 120,0 ming so'mlik, O'zpaxtasanoat 12 596 366,0 ming so'mlik, O'zavtotrans 493 267,0 ming so'mlik, O'zneftgaz 215 995,0 ming so'mlik, O'zenergo 57 630,0 ming so'mlik, xususiy firma, MChJ, OAJlardan jami 520 667,0 ming so'mlik, O'zdon mahsulot 8 820,0 ming so'mlik, jami 13 924 865,0 ming so'mlik kreditor qarzdorlikning mavjudligi aniqlangan albatta kelgusida ishni to'g'ri tashkil etish orqali bu kabi vazifalarni ijobjiy va samarali hal etish imkoniyatlari mavjud.

5-jadval "Oq-oltin" paxta tozalash ochiq aktsiyadorlik jamiyatining moliyaviy natijalari to'g'risida ma'lumotlaridan ko'rindiki, mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum o'tgan yili uchun 17342820 ming so'm, hisobot yilida 18351813 ming so'm, mahsulot(tovar, ish va xizmat)larni sotishdan yalpi foydasi 2741003 ming so'mdan 2919756 ming so'mga ortgan, asosiy faoliyatning foydasi 653595 ming so'mdan, 615857 ming so'mga ortganligi, moliyaviy faoliyatning daromadlari 102120 ming so'mdan, 163907 ming so'mga, moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari 102120 ming so'mdan, 163907 so'mga ortganligi hamda hisobot davrining sof foydasi 27445 ming so'mdan 59715 ming so'mga ortganligi kelgusi davr uchun imkoniyatlarni mavjud ekanligi ko'rish mumkin bo'ladi.

Demak, xulosa qilib aytganda "Oq-oltin" paxta tozalash ochiq aktsiyadorlik jamiyatining ichki va tashqi imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali ishlab chiqarishdagi holatni foydali tashkil etish hamda mehnat resurslaridan keng foydalangan holda ishni to'g'ri tashkil etish barobarida yuqori natijali holatga erishish mumkin bo'ladi.

5-jadval.

“Oq-oltin” paxta tozalash ochiq aktsiyadorlik jamiyatining moliyaviy natijalari to’g’risida

Ko’rsatkichlar nomi	Satr kodi	O’tgan yilning shu davrida		Hisobot davrida	
		Daromadlar (Foyda)	Xarajatlar (zarar)	Daromadlar (Foyda)	Xarajatlar (zarar)
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	0 10	17342820		18351813	
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larning tannarxi	0 20		14601817		15432057
Mahsulot(tovar, ish va xizmat)larni sotishdan yalpi foydasi (zarari) (satr 010-020)	0 30	2741003		2919756	
Davr xarajatlari, jami (satr 050+060+070+080),shu jumladan	0 40		2087408		2303899
Sotish xarajatlari	0 50		263081		280234
Ma’muriy xarajatlar	0 60		476141		666915
Boshqa operatsion xarajatlar	0 70		1348186		1356750
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	0 90				
Asosiy faoliyatning foydasi(zarari) satr 030-040+090	100	653595		615857	
Moliyaviy faoliyatning daromadlari,jami (satr 120+130+140+150+160), shu jumladan:	110	102120		163907	
Dividentlar shaklidagi daromadlar	120				
Foizlar shaklidagi daromadlar	130				
O’zoq muddatli ijara (moliyaviy lizing)dan daromadlar	140				

Valyuta kursi farkidan daromadlar	150				
Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	160	102120		163907	
Moliyaviy faoliyat buyicha xarajatlar (satr180+190+200+210) Shu jumladan:	170		637649		614431
Foizlar shaklidagi xarajatlar	180		637649		614431
O'zoq muddatli ijara (moliyaviy lizing)foizlari xarajatlari	190				
Valyuta kursi farkidan zararlar	200				
Moliyaviy faoliyatning boshqa xarajatlari	210				
Umumxujalik faoliyatining foydasi(zarari)(satr100+110-170)	220	118066		165333	
Favkulodda foyda va zararlar	230				
Daromad solig'i tulangunga kadar foyda(zarar)(satr220+/-230)	240	118066		165333	
Daromad (foyda) solig'i	250		88234		100425
Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar	260		2387		5193
Hisobot davrining sof foydasi(zarari) (satr240-250-260)	270	27445		59715	

III BOB. QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINI MODERNIZATSIYALASHNING YO'LLARI VA ISTIQBOLLARI

3.1. Qishloq xo'jaligi korxonalarini modernizatsiyalashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'llari

Mamlakatimiz agrar mamlakat bo'lganligi bois qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarishni yanada rivojlantirishga oid gal dagi ilmiy va amaliy vazifalar o'z vaqtida bajarib kelinmoqda yanashu vazifalardan biri qishloq xo'jalik korxinalarini modernizatsiyalash ya'ni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash vazifasi hisoblanadi.

Albatta keyingi yillarda mamlakatimizda so'g'oriladigan erlar miqdori kamayib bormoqda ya'ni unum dorligi kam bo'lgan erlar miqdori ortib bormoqda jumladan o'tgan asrning 90-yillarida o'rtacha jon boshiga 0,20 hektar sug'oriladigan qishloq xo'jaligi erlari to'g'ri kelgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2012 yilda 0,15 hektarni tashkil qildi. Tahlillarga qaraganda, 2030 yilga borib hozirgi er maydonlari hajmi kamaymagan taqdirda ham, faqat aholi sonining o'sishi hisobiga jon boshiga 0,12 hektar maydon to'g'ri kelishi kutilmoqda. Bu kelgusida aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash masalasi yanada murakkab bo'lishidan dalolat beradi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishning eng ustuvor yo'li – dehqonchilik mahsulotlari etishtirishda intensiv agrotexnologiyalarni qo'llash, sohani tom ma'noda modernizatsiya qilishdir. Ushbu masalaga Prezidentimiz Vazirlar Mahkamasining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning 2010 yil yakunlari va gal dagi vazifalarga bag'ishlangan majlisida alohida to'xtalib: «Biz modernizatsiya deganda, ko'pincha sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilishni tushunishga o'r ganib qolganmiz. Holbuki, sanoat bilan bir qatorda iqtisodiyotimizning qishloq xo'jaligi kabi etakchi sohasini ham modernizatsiya qilish, uning tarkibiga kiradigan deyarli barcha tarmoq va ishlab chiqarish sohalarining butun kompleksida texnik va texnologik yangilash ishlarini amalga oshirishga katta ehtiyoj sezilmoqda», deya ta'kidlagan edi. Bu borada Qishloq va suv xo'jaligi,

Moliya, Iqtisodiyot vazirliklari va tegishli vazirlik hamda idoralar bilan birgalikda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish bo'yicha qator loyihalar ishlab chiqildi. Jumladan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda, yangi zamonaviy intensiv agrotexnologiyalarni qo'llash; erlearning meliorativ holatini va suvdan samarali foydalanish orqali tuproq unumdarligini oshirish; chorvachilikni rivojlantirish; qishloq xo'jaligini yangi, zamonaviy, yuqori unumli va tejamkor texnikalar bilan ta'minlash; qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni rivojlantirish; qishloq va suv xo'jaligi sohasini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish kabi yo'nalishlarda keng ko'lamli vazifalar belgilab olindi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda, yangi zamonaviy intensiv agrotexnologiyalarni qo'llash natijasida 2015 yilga borib boshoqli don etishtirish hajmini 10, meva etishtirish hajmini 72, sabzavot va kartoshka etishtirish hajmini 38 % oshirish ko'zda tutilmoxda.

Yurtimiz qishloq xo'jaligining etkachi tarmog'i – paxtachilikda yangi agrotexnologiyalarni joriy etish, seleksiya va urug'chilikni takomillashtirish, qishloq xo'jaligi ekinlari kasalliklari va zararkunandalariga qarshi kurash ishlarini rivojlantirish Dasturiga quyidagi tadbirlar kiritilgan: ekin maydonlarini ikki yarusli aylanma pluglar bilan 35–40 sm chuqurlikda ag'darib shudgorlash; chigitni resurstejamkor, zamonaviy, yuqori unumli 8 qatorli seyalkalarda ekish; er resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida 60 sm kenglikda chigit ekishni kengaytirish; unumdarligi past erlarda hamda suv tanqis yillarda paxtadan mo'l va sifatli hosil olishda chigitni qo'shqator usulida ekish; er tekislashni zamonaviy lazerli er tekislagichlar yordamida amalga oshirish vazifalari belgilab olindi. Yuqorida ta'kidlangan vazifalarni amalga oshirish orqali bunday istiqbolli navlar yanada ko'payadi. Yurtimiz paxtakorlari erishayotgan bugungi natijalar yanada mustahkamlanib, davlatimiz xazinasiga paxta tolasini sotishdan tushadigan valyuta miqdori ortadi. Dehqonlarimizning moddiy manfaatdorligi oshib, turmushi yanada farovonlashadi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi sug'orma dehqonchilikka asoslanganligi hech kimga sir emas. Shunday ekan, sug'oriladigan erlarning unumdorligini oshirmsandan turib, pirovard maqsadga erishib bo'lmaydi. Ta'kidlash joizki, bugungi kunda yurtimizda jami sug'oriladigan erlarning qariyb yarmi turli darajada sho'rangan. Shu bois, sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha yaqin yillar mobaynida keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish rejashtirilmoqda.

Suv iste'molini ilmiy asoslangan holda rejashtirish, shuningdek, aniq tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda suv resurslaridan oqilona foydalanish, melioratsiya ob'ektlarining texnik holatini yaxshilash va 255 ming hektar erda kollektor-oqava suvlarining oqib chiqib ketishini ta'minlash, 1 mln 132 ming hektar sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash va barqarorlashtirish, bu erlarda tuproq ball-bonitetini 2–3 ballga oshirish, meliorativ texnikalar parkini yangilash va suv xo'jaligi ekspluatatsiya tashkilotlari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasidagi vazifalarga ustuvor ahamiyat qaratiladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ilg'or texnika va texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Masalaning bu jihatni naqadar muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olgan holda sohani texnik-texnologik jihatdan modernizatsiya qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada qishloq xo'jaligi texnikalari parkini sifat va miqdor jihatdan yangilash, yangi qishloq xo'jaligi texnikalari ishlab chiqarishni o'zlashtirish va sohada zamonaviy, resurs tejovchi agrotexnologiyalarni joriy etish, qishloq xo'jaligi mashinasozligi korxonalarining ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish, qishloq xo'jaligi texnikalari ishlab chiqarishini moliyalashtirish manbalarini diversifikasiya qilishda bu jarayonga davlat byudjeti malag'larini tijorat banklari, xo'jalik yuritish sub'ektlari, qishloq xo'jaligi lizingi bilan shug'ullanuvchi sub'ektlarni keng jalb qilgan holda qisqartirib borishga ustuvor vazifa sifatida yondoshilmoqda.

Qishloq xo'jalik texnikalarini yangilash bo'yicha xorijning ilg'or kompaniya va firmalari bilan keng hamkorlik qilish nazarda tutilgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasini rivojlantirish borasidagi tadbirlar natijasida 2015 yilga borib meva-sabzavot va poliz mahsulotlarni qayta ishlash 1,5 go'shtni qayta ishlash 2,2 sutni qayta ishlash 1,6 marta ko'payadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash sohasida 2015 yilga qadar 500 dan ortiq loyiha ishga tushiriladi. Jumladan, go'shtni qayta ishlash bo'yicha 142 ta korxona tashkil etilib qo'shimcha 25,2 ming tonna mahsulot; sutni qayta ishlash bo'yicha 159 ta korxona ishga tushirilib qo'shimcha 65,6 ming tonna mahsulot; meva-sabzavotni qayta ishlash bo'yicha 189 ta korxona faoliyati yo'lga qo'yilib qo'shimcha 89,7 ming tonna mahsulotni qayta ishlash quvvatiga erishiladi.

Yuqoridagi kabi chora-tadbirlar qishloq xo'jaligining deyarli barcha tarmoq va ishlab chiqarish sohalarining butun kompleksini qamrab oladi.

Bu boradagi sa'y-harakatlardan ko'zlangan asosiy maqsad, mamlakatimiz iqtisodiyotining etakchi tarmoqlaridan biri – qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish, soha samaradorligini oshirish, xalqimizning, ayniqsa, qishloq aholisining turmush darajasini yuksaltirish, o`zbekistonning rivojlangan davlatlar safidan mustahkam o'rin egallashini ta'minlashdan iborat.

Agrar kompleksni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, sanoatda ishlab chiqarishni ko'paytirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish va qayta ishlash, fermer xo'jaliklarini moliyalashtirishga asosiy e'tibor qaratilib, 1 trln. 384 mlrd. so'mlik kreditlar ajratildi.

Bank mablag'lari hisobiga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan faoliyatini qo'llab-quvvatlash, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda yangi loyihalarni amalga oshirish orqali 51 255 ta ish o'rnlari tashkil etildi.

Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida 2012 yil davomida bankning moliyaviy ko'magi asosida qo'shimcha 324,9 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi va xizmatlar ko'rsatildi, jumladan:

- oziq-ovqat yo'nalishidagi loyihalar hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori 89,8 mlrd. so'm;
- nooziq-ovqat iste'mol mahsulotlari miqdori 58,4 mlrd. so'm;
- savdo va xizmat ko'rsatish hajmi 154,5 mlrd. so'm;
- sotib olingan qishloq xo'jaligi texnikalari tomonidan ko'rsatilgan agrotexnik xizmatlar hajmi 22,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Davlat ehtiyojlari uchun paxta va g'alla etishtirish bo'yicha agrotexnik tadbirlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun 814,8 mlrd. so'm imtiyozli kreditlar ajratildi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari, shu jumladan fermer xo'jaliklari texnika parklari yangilanib, 46,7 mlrd. so'm kreditlar hisobiga samaradorligi yuqori bo'lgan 73 dona don o'rish kombaynlari, 542 dona haydov va chopiq traktorlari etkazib berildi.

Jumladan, don o'rish kombaynlariga 7,1 mlrd. so'm, haydov va chopiq traktorlariga 25,2 mlrd. so'm, boshqa qishloq xo'jaligi texnikalari, turli xil tirkamalar va ehtiyyot qismlar xarid qilishga 14,5 mlrd. so'm kredit mablag'lari yo'naltirildi.

Paxta tozalash va don korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish sifatini yaxshilash, zamonaviy qayta ishlovchi texnologik uskunalar o'rnatish hamda eksport salohiyatini oshirish maqsadida "O'zpaxtasanoat" uyushmasi hamda "O'zdonmahsulot" kompaniyasi tizimidagi korxonalarga uzoq muddatli investitsiya mablag'larini ajratilishiga asosiy e'tibor qaratildi.

Xususan, don hosildorligini oshirish hamda urug'lik sifatini yaxshilash maqsadida don korxonalariga Germaniyaning "Pektus" kompaniyasining urug'likni qayta ishlovchi texnologik uskunalar uchun jami 16,9 mlrd. so'm hamda yopiq sig'im omborlari qurilishiga 2,6 mlrd. so'm kreditlar ajratildi.

Paxta tozalash korxonalarida mahsulot sifatini yaxshilash hamda eksport salohiyatini oshirish maqsadida modernizatsiya va rekonstruktsiya qilishga bugungi kunga qadar 34,8 mlrd. so'm mablag'lar yo'naltirildi.

Shuningdek, paxta tozalash korxonalari qoshida chorvachilik va parrandachilikni tashkil etishga 16,6 mld. so'm miqdorida kreditlar ajratilib, 836 ta yangi ish o'rirlari yaratildi.

Pilla hosilini o'z vaqtida va sifatli etishtirish maqsadida fermer xo'jaliklariga to'lanadigan bo'nak mablag'lari uchun 1,5 mld. so'mlik kreditlar ajratildi.

Suv tanqisligining oldini olishga qaratilgan tadbirlar uchun 24 ta "Davsvumaxsusudrat" davlat unitar korxonalariga 1,8 mld. so'm miqdorida kreditlar mablag'lari ajratildi.

Qishloq xo'jalik korxonalari va ularga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarga moliyaviy ko'mak berish hamda ular o'rtasidagi debtorlik va kreditorlik qarzlarini qisqartirish maqsadida monitoringga olingan vazirlik va idoralar tarkibidagi korxonalarga 369,9 mld. so'm kreditlar ajratildi va faktoring xizmatlari ko'rsatildi.

Jumladan, "O'zpaxtasanoat" uyushmasiga 221,3 mld. so'm, "O'zdonmahsulot" kompaniyasiga 60,3 mld. so'm, "O'zagromashservis" uyushmasiga 18,9 mld. so'm va "O'zkimyosanoat" kompaniyasi tarkibidagi "Qishloqxo'jalikkimyo" korxonalariga 69,4 mld. so'm "O'zagromashservis" tizimidagi MTPlar negizida tashkil etilgan "Agrotexservis" MChJlarning ustav kapitalini shakllantirishga bank tomonidan 728,4 mln. so'm mablag'lar investitsiya qilindi.

Shuningdek, "Agrotexservis" MChJlar negizida qora mol, tovuq fermasi, limonariya, nonvoyxona va boshqa servis xizmatlarini tashkil etish maqsadida 1,5 mld. so'mdan ortiq kreditlar ajratildi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida 94,2 mld. so'mlik 10 mingdan oshiq loyihalar moliyalashtirilib, joriy yilda etishtirilgan mahsulot hajmini 89,8 mld. so'mga ko'payishiga erishildi.

Jumladan, chorvachilikni rivojlantirishga 31,6 mld. so'm, parrandachilikka 18,6 mld. so'm, baliqchilik va asalarichilikka 1,8 mld. so'm hamda

issiqxonalar tashkil etishga 5,4 mld. so'm miqdorida kredit mablag'lari yo'naltirildi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, jumladan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va saqlashga qaratilgan loyihalar uchun 7,8 mld. so'm kredit ajratildi.

Hududlarda bog'dorchilikni tashkil etish, jumladan intensiv bog'larni tashkil qilishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun 18 ta fermer xo'jaligigi 1,7 mld. so'mdan ortiq kreditlar ajratildi.

Meva-sabzavot mahsulotlarini saqlashning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish bo'yicha manzilli dasturga asosan 16 ta yopiqsovutgichli sig'imlar qurish uchun 2,2 mld. so'm bank mablag'lari ajratildi va 2170 tonna hajmdagi mahsulot saqlashga mo'ljalangan sig'imlar ishga tushirildi.

Bank tomonidan ajratilgan 1,3 mld. so'm kredit va 2,7 mld. so'm miqdorida naqd pul mablag'lari hisobiga bugungi kunda Sovutgichli sig'imlarda 5 ming tonnadan ortiq sabzavot va bog'dorchilik mahsulotlari zahira qilingan.

Jumladan, 1,9 ming tonna kartoshka, 1,4 ming tonna piyozi, 605 tonna sabzi, 152 tonna karam, 226 tonna meva, 231 tonna poliz va dukkakli ekinlari hamda 468 tonna guruch mahsulotlarining zahirasi yaratilgan.

Aholi tomorqalaridan samarali foydalanish, jumladan dehqonchilik qilish uchun ekin urug'lari, mevali daraxt ko'chatlari hamda zaruriy kimyo vositalari etkazib berilishi tizimli tashkil qilishga jiddiy e'tibor qaratilib, ushbu yo'nalishga 13 mld. so'mdan ortiq kreditlar berildi.

Mazkur jarayonni samarali tashkil etish maqsadida bank tomonidan respublikaning 162 ta tumanida 654 ta bank xodimlaridan iborat otryadlar tuzildi va 508 ta avtomashinalar jalb etilib, ko'chma do'konlar tashkil etildi.

Avtomashinalarda tashkil etilgan ko'chma do'konlar talab etiladigan ekin urug'-ko'chatlari, biologik hamda mineral o'g'itlar, kimyoviy vositalar, inventarlar bilan to'liq ta'minlangan bo'lib, ular belgilangan grafiklar asosida to'liq faoliyat ko'rsatmoqda.

Bugungi kunga qadar 248,1 mln. soʻmlik 45758 dona sabzavot va mevali daraxtlar koʼchatlari, 421,9 mln. soʻmlik 12,3 tonna sabzavot va poliz ekinlari urugʼlari, 136 mln. soʻmlik 11,3 mingta ish anjomlari etkazib berilgan boʼlib, jami 24,8 ming xonadonga 806,1 mln. soʻmlik xizmat koʼrsatildi.

Joylardan olingan maʼlumotlarga asosan amalga oshirilgan hisob-kitoblarga koʼra ushbu ishlarga 70,2 mlrd. soʻmlik mablagʼlar sarf etilishi aniqlandi, shundan 63 mlrd. soʼmi aholining oʼz mablagʼlari va 7,2 mlrd. soʼmlik bank krediti hisobidan amalga oshirilishi rejallashtirilgan.

Hisobot yilida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʼektlarini qoʼllab-quvvatlash uchun 355,4 mlrd. soʼmlik kreditlar ajratilib, 43 mingdan ortiq yangi ish oʼrirlari yaratildi.

Ajratilgan kreditlarning 57 foizi yoki 204 mlrd. soʼmi oʼzoq muddatlarga ajratildi.

Shuningdek, tadbirkorlik subʼektlarining:

- qishloq xoʼjaligi mahsulotlarini etishtirish hamda qayta ishlashga qaratilgan 528 ta 18,3 mlrd. soʼmlik loyihalarini moliyalashtirish hisobiga 3903 ta qishloq aholisi ish bilan taʼminlandi va 22,0 mlrd. soʼmlik mahsulot ishlab chiqarildi;

- aholining nooziq-ovqat isteʼmol mahsulotlarini ishlab chiqarishga qaratilgan 122 ta 6,5 mlrd. soʼmlik loyihalarini moliyalashtirish hisobiga 653 ta qishloq aholisi ish bilan taʼminlandi va 6,7 mlrd. soʼmlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Bank tomonidan 82,4 mlrd. soʼm miqdorida mikrokreditlar ajratildi, shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xoʼjaliklariga chorva mollarini koʼpaytirishni ragʼbatlantirishga berilgan kreditlar 10,1 mlrd. soʼmni tashkil etdi.

Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 29 iyundagi 299-sonli qarori ijrosi doirasida tadbirkor ayollarning loyihalariga 32,4 mlrd. soʼm kredit mablagʼlari ajratildi va 4 mingdan ortiq yangi ish oʼrirlari tashkil qilindi.

Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirishga 94,1 mlrd. so'm kredit ajratilib, 11428 ta yangi ish o'rnlari yaratildi.

Bank tomonidan umumiy qiymati 30,1 mlrd. so'mlik 12 ta iqtisodiy nochor korxonalar bank balansiga qabul qilindi va bankrotlik jarayonidagi xarajatlarni qoplash uchun 1,5 mlrd. so'm to'lovlar amalga oshirildi.

Bankrot korxonalar faoliyatini tiklash maqsadida, ularning ishlab chiqarish bazasini rekonstruktsiya va modernizatsiya qilish uchun jami 32,1 mlrd. so'm, shu jumladan 2012 yilda 14,3 mlrd. so'm miqdorida investitsiya mablag'lari kiritildi.

Ushbu mablag'lar hisobidan 15 mlrd. so'mlik qurilish, ta'mirlash va montaj ishlari amalga oshirildi, korxonalarning ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish uchun 8 mlrd. so'm miqdorida aylanma mablag'lari ajratildi.

Bankrot korxonalar negizida raqobatbardosh va yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida xorijdan zamonaviy texnologiyalar sotib olishga 9 mlrd. so'm yoki 4,9 mln. AQSh dollari miqdorida mablag'lar yo'naltirildi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida, bankrot korxonalar negizida yillik loyiha quvvati 98 mlrd. so'mlik yoki 7,8 ming tonna oziq-ovqat, 905 tonna tekstil mahsulotlari ishlab chiqaruvchi, 55 mln. dts. kv. terini qayta ishlovchi hamda 2 mln. dona atirgul etishtirishga ihtisoslashgan yangi korxonalar barpo etilib, 600 dan ortiq mahalliy aholi ish bilan ta'minlandi.

Bugungi kunda faoliyati tiklangan korxonalarda biznes reja ko'rsatkichlariga asosan 17,7 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib (2012 yilda 9,8 mlrd. so'm), shundan 5,8 mln. AQSh dollari miqdorida (2012 yilda 2,3 mln. AQSh dollari) eksportga yo'naltirildi.

Mazkur korxonalarda 1 823 tonna kalava ip, 497 tonna go'sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarildi, qishloq xo'jalik texnikalariga extiyot qismlar uchun 350 ming tonna metal qayta ishlandi hamda 1 200 gektardan ortiq er maydonlariga agrotexnik xizmatlar ko'rsatildi.

Bugungi kunda Prezidentimizning “Iqtisodiyotning real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-4053-sonli Farmoni ijrosi doirasida bank balansiga olingan 12 ta korxonaning 10 tasida ishlab chiqarish faoliyati to’liq qayta tiklandi va 7 tasi yangi investorga bosqichma-bosqich to’lov asosida sotildi.

3.2. Qishloq xo’jaligi korxonalarini modernizatsiyalashning tizimini takomillashtirish istiqbollari

Kechiktirib bo’lmaydigan ijtimoiy muammolarni hal etmasdan va qishloq hududlarini barqaror rivojlantirish siyosatini amalga oshirmsandan turib, qishloq xo’jaligini innovatsion rivojlantirib bo’lmaydi.

Qishloqda aholining ijtimoiy jihatdan shahar sharoitiga yaqinlashtirilgan turmush darajasini shakllantirish va qishloqning jamiyatdagi ijtimoiy-hududiy kichik tizim sifatidagi vazifalari – ishlab chiqarish, demografik, ijtimoiy-madaniy, tabiatni muhofaza qilish, rekreatsion, hudud ustidan ijtimoiy nazorat yuritish bo’yicha hududiy-kommunikatsion vazifalar to’ldirilishini maqbullashtirish ijtimoiy rivojlantirish siyosatining uzoq muddatli maqsadi hisoblanadi.

Qishloqni barqaror rivojlantirish sohasidagi siyosatning o’rta muddatli maqsadi iqtisodiyotning asosiy tarmog’i sifatida qishloq xo’jaligidan olinadigan daromadlarni oshirish, aholining qishloq xo’jaligidan tashqarida ish bilan band bo’lishi doirasini kengaytirish, qishloq aholisining ijtimoiy va muhandislik infratuzilmasi xizmatlaridan foydalanishini yaxshilash yo’li bilan bu hududda ijtimoiy muhtojlik darajasini pasaytirishdan iborat.

Ko’zlangan maqsadga quyidagi muammolarni hal qilish orqali erishish mumkin:

- qishloq xo’jaligining yuqori raqobatbardoshligi va samaradorligiga erishish bo’yicha dasturlar va institutsional tadbirlar majmuini amalga oshirish;

- qishloqda kichik va o’rta tadbirkorlikni rag’batlantirish, dehqon va fermer xo’jaliklarini, kredit, savdo-xarid kooperativlari va boshqa turdagি xizmat ko’rsatuvchi kooperativlarni qo’llab-quvvatlash;
- qishloqda uy-joy qurilishini va ijtimoiy infratuzilmani: qishloq hamjamiyati ega bo’lgan resurslarni gazlashtirish tizimlarini rivojlantirish;
- qishloq hamjamiyatlarining hayotini demokratlashtirish, mehnat munosabatlarini jamoaviy tartibga solishni, mahalliy o’zini-o’zi boshqarishni, jamoat va jamoat-xo’jalik tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish orqali aholining ishlab chiqarishni rivojlantirish bilan bog’liq qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini faollashtirish;
- respublikamizning turli mintaqalarida qishloq hududlarini iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirish darajasini o’zaro yaqinlashtirish.

Qishloq xo’jaligida foydalaniladigan tabiiy resurslarni samarali takror ishlab chiqarmasdan turib, qishloq xo’jaligida iqtisodiy o’sishga erishib bo’lmaydi. Bu o’sish quyidagi yo’llar bilan ta’minlanadi:

- tuproqqa ishlov berishning resurslar tejovchi texnologiyalarini qo’llash ko’lамини kengaytirish, hayvonlar va parrandalarni saqlab turish;
- dehqonchilikning moslashuvchan tizimini o’zlashtirish.

- qishloq xo’jaligi erlarini saqlash va takror ishlab chiqarish (qishloq xo’jaligi erlarining agrokimyoviy va ekologotaksikologik tekshiruvlarini kuchaytirish, ularning holati va tuproq unumдорligi dinamikasi haqida ma’lumotlar bankini yaratish; qishloq xo’jaligiga agrokimyoviy xizmat ko’rsatishni yaxshilash – organik va ma’danli o’g’itlarni kiritish; sug’orish va meliorativ tizimlarni rekonstruktsiyalash, tiklash va rivojlantirish va h.k. lar);
- qishloqni va birinchi galda qishloq aholisi er, moliyaviy, moddiy-texnika va axborot resurslaridan foydalanishini yaxshilovchi institatlarni, shuningdek, bu hududdagi turli ijtimoiy guruhlarning iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini himoya qiluvchi institatlarni rivojlantirishning institutsional shart-sharoitlarini takomillashtirish.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirishda qishlaqni barqaror rivojlantirishning quyidagi tamoyillariga amal qilish lozim:

- yagona hududiy, xo’jalik va ijtimoiy-madaniy tizim sifatida qishloqni kompleks rivojlantirish;
- shahar bilan aloqalarni kengaytirish va chuqurlashtirish asosida uni shahardan farqlovchi holatlarga barham berish, agrosanoat integratsiyasi, turli qishloq-shahar xo’jalik tuzilmalarini tashkil etish, yo’l-transport kommunikatsiyasini, telefon va aloqaning boshqa shakllarini rivojlantirish, aholiga jamoa xizmatlari ko’rsatishning yagona tizimlarini shakllantirish yo’li bilan qishloqni yagona jamoat tizimiga kiritish;
- aholi guruhlariga xizmat ko’rsatish markazlari vazifasini bajaruvchi «tayanch» qishloq aholi punktlarining ayri holda joylashishini ta’minlash va aholining sonidan qat’i nazar, qishloq hududlarini rivojlantirish;
- davlat, mahalliy boshqaruv, biznes va aholi o’rtasida ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish;
- qishloq aholisining rivojlanishini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash tadbirlarini uyg’unlashtirish;
- chuqur va mamlakat kelajagi uchun o’ta xavfli bo’lgan agrar inqirozga barham berish, qishloq xo’jaligi va agrosanoat majmuuning boshqa tarmoqlarini tiklash va innovatsion yangilash.

Ushbu tamoyillar ijrosi yo’lga qo’yilishini ta’minlash davlat, qonunchilik va ijroiya hokimyatining muhim strategik vazifasi va buning uchun ular javobgarligi hisoblanadi. Qonunlarni qabul qilish, qonunchilik organlari tomonidan innovatsion yangilanishi va agrar sektor raqobatbardoshligini oshirishning uzoq muddatli dasturlari tasdiqlanishi hamda ushbu qonunlar va dasturlar bajarilishi yuzasidan doimiy parlament nazorati ko’rinishida istiqbolli agrar siyosatni qonuniy jihatdan to’liq ta’minlash zarur.

Birinchi galda innovatsion yangilanish milliy dasturlarining loyihibalarini amalga oshirishda bevosita ishtirok etuvchi tashkilotlar uchun soliq yukini engillashtirish va respublika agrar sektorining raqobatbardoshligini oshirish,

shuningdek, ushbu sohada tayanch innovatsiyalarni o'zlashtirish va tarqatishni moliyalash va imtiyozli kreditlash yo'li bilan agrar sektor tarmoqlarida innovatsiya jarayonlarini iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini qonunchilik tartibida ko'zda tutish lozim.

Agrar sektor axborot, ilmiy kadrlar bilan ta'minlanishini tubdan yaxshilash ushbu sohani innovatsion yangilashning zarur sharti hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligining o'rta va uzoq istiqbolda rivojlanishini prognozlashtirish bir qator tabiiy, siyosiy, iqtisodiy va texnologik tusga ega bo'lgan, kutilmagan omillarni hisobga olish kerakligi tufayli hozirda birmuncha murakkab. Ushbu muammolarni hal etish vaziyatlar rivojining ehtimoliy stsenariylari bilan uzviy bog'liq bo'lgan eksport usullaridan foydalanishni² taqozo etadi.

Prognoz – bu, ehtiyojlar, zarur resurslar va tashkiliy chora-tadbirlarni hisobga olib, belgilangan maqsadlardan kelib chiqqan holda, prognozlashtiriladigan ob'ektni rivojlantirish yo'llari to'g'risida yarim variant tusga ega ilmiy asoslangan mulohazadir.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi ko'pgina tarmoq yo'nalishlariga ega, prognozlashtirish esa, umuman olganda, ushbu tarmoqlar va yo'nalishlar prognozlari yig'indisidir. Shuni hisobga olib, ushbu prognozlarda o'simlikshunoslik tarmog'ida innovatsiya faolligini ko'rib chiqdik.

O'simlikshunoslikni innovatsiya yo'li bilan rivojlantirish samaradorligi qishloq xo'jaligi tarmoqlaridagi innovatsiya faolligi darajasiga, u esa, o'z navbatida, ilmiy texnika salohiyatini rivojlantirishga, jumladan, innovatsiya infratuzilmasining rivojlanish holatiga bog'liq.

Ilmiy-texnika salohiyatining asosiy qismi bilimlar va tashkillashtirish tizimlarini aks ettiruvchi agrar fan hisoblanadi. Erga ishlov berish va qishloq xo'jalik ekinlarini parvarishlashda agrar fanning asosiy bloklari

² Теоретические основы и модели долгосрочно макроэкономического прогнозирования. Под. Ред Ю.В. Яковца – М.: МФК, 2004.

o'simlikshunoslik faniga, blokiga birlashtirilgan. Ushbu blokning ilmiy tashkilotlari turli ilmiy-tadqiqot bo'linmalaridan iborat. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun tadqiqotlar bilan shuningdek, boshqa idoralarning ilmiy tashkilotlari (birlashmalari) ham shug'ullanadi, biroq bu borada ularning solishtirma ulushi juda kichik. Faqatgina o'simlikshunoslik va dehqonchilik sohalarida ilmiy ishlanmalar respublikamiz qishloq xo'jaligi tizimidagi 15 dan ortiq ilmiy muassasalar tomonidan olib borilmoqda.

Oxirgi o'n yillik ilmiy muassasalarning murakkab holati, byudjetdan moliyalash darajasi pasayishi bilan xarakterlanadi. Bunda o'z xarajatlarini o'zi qoplash yo'llarini izlash jarayoni kuchayadi, bir qator muassasa maqomi o'zgaradi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, qaytadan tashkil etishlarning asosiy bosqichi tugadi, yaqin kelajakda sezilarli va jiddiy tashkiliy o'zgarishlar kutilmayapti. Respublikamiz byudjetidan tadqiqotlar uchun ajratiladigan mablag'lar hajmining qisqarishi, bu boradagi vazifalarning ma'lum qismi vazirliklar va idoralarga, shuningdek, viloyatlarga o'tkazilishi ilmiy muassasalar ma'lum darajada o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Lekin bu hol ularning faoliyatiga ta'sir ko'rsatmasligi kerak.

Juda zaif va unchalik ahamiyatga ega bo'lмаган muassasalarga innovatsiya yo'nalishini yo'qotmagan holda birlashmalarga birlashishi ehtimoli bor.

Maqomi ilmiy tashkilotlar maqomiga teng bo'lgan ilmiy markazlar soni ko'payishi mumkin, odatda, bular joriy qilish yoki axborot tuzilmalaridir. Shuningdek, korporativ ilmiy muassasalar va xususiy mulk shakliga mansub bo'lgan ilmiy tashkilotlar soni ko'payishi ham ehtimoldan xoli emas.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish davrida davlatning innovatsiya siyosati to'plangan ilmiy salohiyatni saqlab qolishga yo'naltirilgan, tarkibiy qayta tuzishlar esa, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ilmiy-texnika tomonidan rivojlantirishga o'tishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Bozor hamda uning rivojlanishi ilmiy-texnik ishlanmalar yo'nalishlaridagi o'zgarishlar kuchaytirilishini talab qiladi. Bunda ilmiy tadqiqotlarning samaradorlik ko'rsatkichlari bo'lib ishlab chiqarishda ilmiy mahsulotga bo'lган talab oldinga chiqadi. Selektsiya sohasida eng ko'п talab yo'nalishi intesiv turdagи mahsulotlar, navlar va gibridlarni o'zlashtirishdir. Aniqrog'i, bug'doyning doni tarkibida elimlik miqdori yuqori bo'lган navini yaratish, pivo tayyorlashda ishlatiladigan arpa doni tarkibidagi oqsilni ko'paytirish, g'o'zaning ko'п va sifatli tola beradigan navlarini ekish va parvarishlash va h.k.larga e'tibor kuchaytirilishi zarur.

Yaratilgan navlar kasalliklarga va zararkunandalarga chidamli, mineral ozuqalarni yaxshi o'zlashtiradigan, boshqa tabiiy va stress vaziyatlarga moslashuvchan, bir maromda etiladigan va iste'mol uchun boshqa ko'rsatkichlarga ega bo'lishi kerak.

Dehqonchilikda istiqbolli yo'nalishlar quyidagilar hisoblanadi:

- bozor munosabatlari sharoitlarida xo'jalik yuritish talablariga javob beradigan, yangi, ilmiy asoslangan dehqonchilik tizimini ishlab chiqish;
- ma'lum tuproq-iqlim sharoitidagi hududlar uchun ochiq yo'nalishdagi, qisqa rotatsiyali almashlab ekishni kiritish; almashlab ekishda bozor talabidan kelib chiqqan holda ma'lum o'zgartirishlar amalga oshirilishini ko'zda tutish;
- ekinlarga ishlov berishda resurslar va energiyani tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqish;
- dehqonchilikda bevosita biologiyalashtirish (o'simliklarni himoya qilish, ularning o'sishi va rivojlanishini ta'minlovchi biologik usullar)ni joriy etish;
- yangi, yuqori samarali, ko'п komponentli o'g'itlarni va ularni qo'llash usullarini ishlab chiqish;
- dehqonchilikni ekologizatsiyalash bo'yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish.

O'simchilik intensivligi innovatsiyalarni o'zlashtirish darajasi bilan belgilanadi. Innovatsiya faolligi ko'pgina omillar, jumladan, joriy qilish faoliyati sohasining holatiga bog'liq. Joriy qilish faoliyati turli tuzilmalar (ilmiy ishlab

chiqarish tuzilmalari, MTP agrotexnologiyalari va axborot-konsultatsiya (maslahat) markazlari va h.k.lar) tomonidan amalga oshiriladi. Ularning orasida eng rivojlangani axborot-maslahat markazlaridir. Axborot-maslahat markazlari yaqin kelajakda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning innovatsiya yo'lini ta'minlovchi kuchli resurs bo'lib qoladi.

Shu bilan bir vaqtda o'xshash tarmoqlarda ham tarmoq markazlarini (texnik xizmat ko'rsatish, agrokimyo markazlari va h.k. lar) tuzish zarur.

Ushbu davrda innovatsiya rivojlanishi, ilmiy ishlanmalarni tanlash, tahlil etish mexanizmlarini talab qilish lozim.

Bundan tashqari mintaqqa darajasidagi tarmoq maslahat xizmatlarini shakllantirish bosqichi eng murakkab va uzoq davom etadigan bosqichdir. Mintaqaviy tarmoq maslahat xizmatini tuzishni yanada kengaytirish kerak. Tarmoq maslahat markazining mintaqaviy bo'lanmalarini shakllantirishga respublikamiz va viloyatlardagi etakchi ilmiy-tadqiqot institutlarini jalb qilib, ularning ilmiy salohiyati va moddiy-texnika imoniyatlaridan foydalaniladi.

Mintaqaviy tarmoq markazlarining keyingi rivojlanishi qishloq xo'jaligi mintaqaviy boshqaruв organlari, mintaqaviy va hududiy ilmiy muassasalar o'z vaqtida va rasamadida shakllanishiga bog'liq.

Axborot marazlari xizmatini tarmoq maslahat xizmati tizimini shakllantirish quyidagilarni amalga oshirishga imkon beradi:

- qishloq xo'jaligi innovatsiya faolligini oshirish uchun agrar ilmiy va joriy etish tashkilotlari ishlarini birlashtirish;
- olimlarning joriy qilish faoliyatiga faol tarzda jalb etish;
- istiqbolli, ilmiy texnika ishlanmalarini tuzish va ushbu bank ma'lumotlaridan axborot xizmati markazining mintaqaviy va tuman bo'linmalari, qishloq xo'jalik tovarlari ishlab chiqaruvchilar foydalanishlarini ta'minlash;
- innovatsiya mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar – ilmiy muassasalar va ishlab chiqarish tuzilmalarining qarama-qarshi aloqalarini yo'lga qo'yish;

- joriy qilingan innovatsiyalar hisobini olib borish, ulardan foydalanish jarayonini tahlil qilish, bu boradagi ehtiyoj monitoringini o'tkazish va shu asosda keyingi ilmiy-texnika ishlanmalarini rejalashtirish;

- tarmoqning rivojlanish yo'nalishlarini muvofiqlashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha faoliyat va ularning ustuvorligi strategiyasini ishlab chiqish;

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining texnologik darajasini ko'tarish.

Innovatsiya tizimining qimmatli jihat shundaki, u iqtisodiyot tarkiban deformatsiyalangan, innovatsiya jarayonini boshqarish izdan chiqqan qishloq xo'jalik korxonalari darajasida axborot vakuumi sharoitlarida, qisqa muddat ichida tarmoqni tanazzuldan chiqarish uchun yangi imkoniyatlar taklif qiladi. Qishloq xo'jalik tovarlari ishlab chiqaruvchilarning ilmiy-texnika imkoniyatlari va ishlab chiqarishdagi ilg'or tajribalar to'g'risida keng ma'lumotlarga ega bo'lishi ularni xo'jalik yuritishning innovatsiya usullariga o'rgatish, innovatsiya qoidalarini o'zlashtirish, maslahat yordamlari berish orqali qishloq xo'jaligi innovatsiya faolligini ko'tarishni ta'minlash uchun sharoitlar yaratadi.

O'simlikshunoslik sohasida innovatsiyalash tizimi o'zlashtirilishining rivojlanishini prognozlashtirar ekanmiz, bu tarmoqni rivojlantirish samaradorligi to'g'risida ma'lum xulosaga kelamiz.

Bizning prognozlash uslubiyatimiz (metodikamiz) tarmoq maslahat siyosatining real rivojlanishiga, innovatsiya faolligini oshirishda qo'llanilayotgan usullar va qoidalarning to'g'riliqi, ishonchliligi, umumjahon qonuniyatlari (ilmiy-texnika ishlanmalari) xo'jalik faoliyati samaradorligiga ta'siriga asoslangan.

Shunday qilib, tarmoq maslahat xizmati tizimining rivojlanish dinamikasi prognoziga ko'ra, respublika darajasida o'simlikshunoslik bo'yicha innovatsiyalarni o'zlashtirish tizimini shakllantirish mumkin. Bir vaqtning o'zida, qishloq xo'jalik maslahati markazlari xodimlari tomonidan axborot-maslahat va joriy qilish usullari o'zlashtiriladi va yangi, samarali ilmiy ishlanmalar to'g'risida aniq ma'lumotlar olish uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

Kuzatishlar rivojlangan mamlakatlarning qishloq xo'jaligidagi muvaffaqiyati joriy etish tuzilmalari faoliyati bilan bog'liqligini ko'rsatmoqda. Mazkur mamlakatlar fermerlarining 60-80 foizi innovatsiyalarni aynan shu tuzilmalar yordamida o'zlashtirishadi. Shu munosabat bilan oxirgi vaqtarda oliy maxsus bilimga ega bo'lgan yosh mutaxassislar soni ikki marotabaga qisqargan.

Qishloq xo'jaligi tuman boshqaruv organlari ma'muriy vazifalari tomon yuzlanishi keljakda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning innovatsiya ishlanmalarini qabul qilish imkoniyatiga real baho berishni talab qiladi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, hozir fermerlarning deyarli 80%i doimiy tarzda maslahat olishga majbur. Yaqin keljakda bu ko'rsatkich ko'paysa ko'payadi, lekin kamaymaydi.

Rivojlanishning innovatsiya yo'liga bo'lgan talab va shu munosabat bilan axborot-maslahat xizmatlariga talab tarmoqda kechayotgan mulkiy, texnikaviy va ijtimoiy o'zgarishlar munosabati bilan oshib boradi.

Texnika bilan etarli ta'minlanmagan, kerakli kadrlarga ega bo'limgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga investitsiya imkoniyatlari katta yirik sanoat, moliya va tadbirkorlik tuzilmalari kirib kelmoqda. Tabiiyki, investitsiyalarning tezda qaytishini ta'minlovchi, yuqori darajada intensifikatsiyalashgan va yuqori texnologiyalarga ega bo'lgan paxta va don etishtirish jarayoni ayniqsa jadallahadi.

Investorlar qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi texnologiyalari bo'yicha bilimdon emasligi, joylarda bu yo'nalishdagi ixtisoslikka ega mutaxassislar yo'qligi intensiv navlarni, innovatsiya texnologiyalarini, energiyani tejovchi, yuqori unumli mashinalar va boshqa samarali vositalarni tanlashda yuqori malakali maslahatchilar imkoniyatlari va bilimlari jalb qilinishini talab etadi. Qarama-qarshi innovatsiya takliflari majudligi ular tomonidan iqlimiyl-texnika ishlanmalarga va yuqori samarli investitsiyalarga bo'lgan talabni keskin oshiradi.

Ushbu qishloq xo'jaligidagi ba'zi sohalarni yanada rivojlantirish uchun modernizatsiyalashga qaratilgan ya'ni tarmoqni innovatsiyaviy rivojlantirish nuqtai nazaridan qarash zarur bo'ladi. Uning eng muhim yo'naliishlari quyidagilar hisoblanadi:


- tuproq-iqlim zonalarini aniqlashtirish, yuqori va sifatli hosil olish, tarmoqning yuqori rentabelligini ta'minlash;
- o'zimizning selektsiyamiz va xorijiy davlatlar selektsiyasidan olingan elita navlarining etishtirishda aniq sharoitlariga moslashgan, iste'molchi tomonidan ko'p talab qilinadigan bug'doy navlarining sifatli urag'lik materiallari bilan ta'minlash;
- ekinlarga ishlov berishni energiya tejovchi ishlab chiqirish sharoitlariga moslashtirish va samarli texnologik kuzatuvni tashkil qilish;
- tarmoqning samarali ishlab chiqarish infratuzilmasini takomillashtirish, ilmiy-texnika, axborot va kadrlar ta'minotini yanada yaxshilash;
- bug'doy etishtirish va sotishni investitsiyalash va kreditlash mexanizmini takomillashtirish, dotatsiyalash va kompensatsiya hisobiga qo'llab-quvvatlashni yanada rivojlantirish;
- innovatsiya jarayonlarida hosildorlikni oshirish;
- raqobatbardoshlikni kuchaytirish hisobiga ishlov beriladigan maydonlarni qisqartirgan holda (sug'oriladigan erlarda bug'doy ekiladigan maydonlarni 800-850 ming hektarga keltirish taklif qilinadi) ishlab chiqarish hajmlari oshirilishiga erishish.

Ma'lumki, hosildorlikni 50 tsentnerga etkazish yangi navlar va gibridlarni qo'llash hisobiga ta'minlanadi. Don etishtirishda resurslarni tejovchi texnologiyalarni qo'llash MTPda butlash uchun ketadigan mablag'larni 30-35%, yoqilg'i-moylash materillallari xarajatlarini 30-40% va mehnat sarflarini 20-40% tejash imkonini beradi.

Bundan tashqari, qishloq xo'jalik ekinlari ekish va parvarishlashda amal qilinishi kerak bo'lgan texnologik qoidalar sonining qisqarishi, shu hisobdan yoqilg'i mahsulotlari chiqindisi kamayishi ekologik vaziyatni yaxshilashga,

atrof-muhit musaffoligini saqlashga imkon beradi, haydaladigan erlar zichlanishi kamayishi hisobiga tuproq unumdorligining pasayishi to'xtaydi.

Qishloq xo'jaligi modernizatsiyalash hamda zamonaviy yangi texnologiyalarni o'zlashtirish – asosiy maqsad, biroq bunda investitsiyalar uchun daromad olish zarur, uning potentsial daromadliliginini baholash kerak. Amaldagi agrar siyosat doirasida qishloq xo'jaligini o'rganish va bu sohadagi monitoringlar ko'rsatishicha, amaliyotda shunday vaziyatlar yuzaga keladiki, bunda yangi texnologiyalardan foydalanishga hali erta yoki kech; mavjud talab ketgan xarajatlar qaytishini ta'minlamaydi; korxona qo'llash tajribasiga ega bo'limgan texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotni bozirga olib chiqadi. Texnologik omillar iqtisodiy omillar bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak. Kelajakda yangiliklarni kiritishdan olinadigan foydani baholash yangiliklarni qo'llash, iqtisodiy asoslangan strategiyani ishlab chiqish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, bozorda raqobat sharoitini shakllantirishga ko'maklashadi (2-rasm).



2-rasm. Texnologik innovatsiyalar va qishloq xo'jalik korxonalarining o'zaro aloqasi.

Texnologik omillarni o'rganganda so'ngi yangiliklarning ko'lamlari muvaffaqiyat asosi hisoblanadi. Biroq ba'zida korxonalar bozorga texnologiya tomonidan asoslangan, lekin tijorat tomonidan yo'llanmagan texnologiyalar bilan kiramilar. Bu esa katta tavakkalchilikka olib keladi.

Shu bois xo'jaliklarni guruhlash masalasi va bozor muhitining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda istiqbolli texnologiyalarni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan investitsiyalarga ilmiy asoslangan talablar yuzaga keladi. Bu esa, xo'jalik yurituvchi birlikning texnologik darajasini belgilash va uning texnologik rivojlanish qobiliyatini aniqlash imkonini beradi.

Bularning hammasi birgalikda qishloq xo'jalik mahsuloti etishtirishda raqobat uchun (tegishli ishlab chiqarish vositalari, bozor aloqalari) qulay sharoitlarga ega bo'lgan xo'jaliklarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, iste'molchi bug'doyning navi va parametrlariga kata talab qo'yadi. Shundan kelib chiqqan holda urug'chilik bilan shug'ullanuvchilar oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- bug'doy ekiladigan barcha hudularda istiqbolli navlar ekishni joriy qilish;
- don etishtiruvchilar va iste'mol qiluvchilarda nav tarkibiga yagona yondashuvni ishlab chiqish;
- yuqori sifatli urug'lar etarli hajmlarda etishtirilishini ta'minlash.


G'allachilik bo'yicha tadqiqot ishlari olib borayotgan olimlarning fikricha, intensiv turdag'i navlar va yuqri unimli, energetik vositalardan foydalanib, g'allachilikda yangi, yanada takomillashgan texnologiyalarni qo'llash sug'oriladigan maydonlarda etishtiriladigan bug'doy hosildorligi 1,5-1,7 martaga oshishini ta'minlaydi.

Bug'doy etishtirish samaradorligining pasayishiga sabab bo'layotgan omillardan biri respublika hamda mintaqalar darajasida axborot-maslahat ta'minoti yo'qligidir.

Bug'doy etishtiruvchilarning ko'pchiligi mayda tovar xo'jaliklari (fermer va dehqon xo'jaliklari) dir. Shu bois viloyatlarda axborot-maslahat markazi bo'linmalari tuzishni tezlashtirish kerak. Ishlab chiqarishni rivojlanishning

yanada yuqori darajasiga o'tkazish qishloq xo'jalik tarmog'i samaradorligini ta'minlaydi, boshqa yordamchi xo'jaliklar rivojlanishi uchun sharoitlar yaratadi, aholi moddiy farovonligini, shuningdek, ishlab chiqarishning daromadlilagini ham, korxonaning investitsiya imkoniyatlarini ham oshiradi. Bu esa, korxona yoki tizimning o'z mablag'lari hisobidan yangi innovatsiya muammolarini echishga imkon beradi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini rivojlantirishning innovatsiya yo'li ijtimoiy-iqtisodiy ahmiyatini shartli ravishda 3-rasmdagi ko'rinishda ifodalash mumkin.



3-rasm. Qishloq xo'jaligi innovatsiyaviy rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.

Shunday qilib, qishloq xo'jaligi innovatsiyaviy rivojlanishi tarmoq samarali faoliyat ko'rsatishini, ishchilarning moddiy farovonligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini va qishloq hududari barqaror rivojlanishini ko'zlaydi.

Innovatsiya jarayonlari qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi oshishi, qishloq xo'jalik mahsulotlari tannarxini pasaytirish va sifatini oshirish hisobiga raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Energiya tejovchi texnolo giyalar, yangi mashinalardan va takomillashgan boshqa vositalardan foydalanish qishloq xo'jaligini yanada rivojlantiradi, raqobatbardosh va talab ko'p bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlari ko'payishiga imkon beradi, qishloq xo'jalik tarmog'i samaradorligini oshiradi, o'rindosh, yordamchi va boshqa tarmoqlarning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Qishloq xo'jaligini innovatsion yangilashning muhim jihatlaridan biri intellektual mulkni himoyalash, ushbu mulk ob'ektlari qiymatini baholash muammolari va intellektual faoliyat natijalari bilan bog'liq innovatsiyalar bozorini shakllantirish istiqbollari hisoblanadi.

Bu boradagi masalaning agrar jihatlari bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarning muhim natijalari jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- agrar sektorda intellektual mulk bilan bog'liq tushunchani rivojlantirish;
- ilmiy-texnika salohiyatini baholashga nisbatan yondashuv va undan respublika iqtisodiyotining agrar sektorida foydalanish hamda innovatsiya mahsuloti bozorini rivojlantirish;
- intellektual mulk ob'ektiiga bo'lgan huquqlarning bozor qiymatini aniqlashning metodologik asoslari (selektsiya yutuqlari misolida).

Innovatsiya mahsuloti va intellektual mulk ob'ektlari bozori rivojlanishning dastlabki bosqichida turibdi. Ushbu bozorga takliflar selektsiya markazlaridan, urug'chilik xo'jaliklaridan, axborot-maslahat tizimlaridan kelib tushadi. Ushbu bozor tadqiqotchilari qishloq xo'jaligi tashkilotlari tomonidan talab darajasining IX batan pastligini ta'kidlashadi. Mazkur korxonalarning yarmidan ko'pi bunday imkoniyatni umuman yo'qotishdi. Shu bois innovatsiya mahsuloti

bozori va jiddiy innovatsiya loyihalarini bajarish ko'p jihatdan talabning moliyaviy ta'minlanishiga bog'liq.

Agrooziq-ovqat tizimlaridagi ilmiy-texnika jarayonining jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, rivojlangan mamlakatlarda agrar soha katta innovatsiya salohiyatiga ega. Sanoatning ayrim tarmoqlaridan farqli o'laroq, agrar ishlab chiqarishda, agar u etarlicha moliyalansa va ish to'g'ri tashkil etilsa, innovatsiyani ommaviy tarqatish bo'yicha katta imkoniyatlar mavjud. Boz ustiga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va qishloq xo'jaligi xom ashvosini qayta ishslash o'zining moslashuchan qobiliyatlariga ega bo'lib, ulardan bozor kon'yunkturasi o'zgargan hollarda foydalaniladi.

Respublikamizning agrooziq-ovqat sektori innovatsion yangilanish ostonasida turibdi. Busiz qishloq xo'jaligi nafaqat tashqi, balki ichki bozorda o'sib borayotgan raqobatga ham dosh bera olmaydi. Innovatsiya texnologyalari va ishlab chiqarishni boshqarish shakllari qishloq xo'jaligining samarali proportsinalligiga va oziq-ovqat mahsulotlari bozorlari oqilona integratsiyalashuviga ko'maklashadi.

XULOSA

Hozirgi vaqtida iqtisodiyotning modernizatsiyalash imkoniyati yanada oshirish va shu asosda iqtisodiy o'sishning sifat ko'rinishiga o'tish muhim hisoblanadi. Bunda ishlab chiqaruvchilar bozor faoliyatining iqtisod zamonaviylashgan sharoitdagi yutuqlariga bevosita bog'liq innovatsion standartlarni birmuncha o'zlashtirishadi. U, o'z navbatida, ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash maqsadida aholi moddiy farovonligini ko'tarishga qaratilgan, moddiy talabni qondirish, ekologik ta'minot va ijtimoiy muhitni shakllantirishga yo'naltirilgan tadbirlarni targ'ib qiladi. Modernizatsiya sohasini shakllantirish masalalarini tadqiq qilish, loyiha institutsional mexanizmlarini o'zlashtirish, kelgusida iqtisodiy rivojlanish sur'atining bosh omili sifatida ilmiy-texnika yutuqlaridan foydalanish va davlat innovatsiya siyosatini qo'llash mutaxassislar, amaliyotchilar va ilmiy jamoa qiziqishini uyg'otadi.

Modernizatsiyalashga taalluqli, shuningdek, texnologiyani joriy qilish bo'yicha muammolarni nazariy o'rganish, innovatsion va ilmiy-texnika dasturlarini amaliy tarzda ishlab chiqish bo'yicha rejalar tuziladi.

Sohani rivojlantirish ishlab chiqarishni jadallashtirish va investitsiya muhiti, investitsiyalarning rivojlanish dinamikasiga bog'liq bo'ladi.

Modernizatsiyalash sohasi infratuzilma doimiy takomillashtiri-lishini talab qiladi, ya'ni hususiy biznesda past investitsiya faolligini oshirish, innovatsiya sohasiga kapital kiritishda, axborot va kredit to'siqlarini engib o'tishda davlat tarmoqni moliyalashiga zaruriyat oshadi. Modernizatsiyalash jarayonidagi iqtisodiy o'sish sur'ati va samaradorlikning doimiy ortib turishi albatta ijodiy imkoniyatlarga bog'liq bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida islohotlar tufayli xo'jalik yuritish va mulkchilik shakllari o'zgarishi, qishloq xo'jalik ekinlari tarkiblari o'zgartirilishi, mahsulotni qayta ishslash rivojlanganligi tarmoqda bozor munosabatlari me'yor darajasida deyish mumkin. Qishloq xo'jalik tovarlari etishtiruvchilari ham hamon savdoni o'rganmagan. Shuning o'zi ham qishloq xo'jaligi mahsulotlari

raqobatbardoshligi pastligini va qishloq xo'jalik korxonasi raqobat sharoitida ishlashga tayyor emasligini ko'rsatadi.

Ichki bozorda intensiv raqobat bo'lmasa, tovar ishlab chiqaruvchilar xorij bozorlariga chiqa olmaydi. Buning uchun yangilik, xususan, yangi texnologiyalar kiritish, mehnat unumdorligini oshirish va iqtisodiy tarmoqni modernizatsiyalash usulida rivojlantirishga o'tish talab qilinadi. Bu bo'shliqni to'ldirish uchun nazarimizda, uchta masalani hal qilish lozim:

- respublika, viloyat va tuman miqyosida qishloq tovar mahsuloti ishlab chiqaruvchilarining, bozor kon'yunkturasi bo'yicha resurslar bozori, qishloq xo'jalik tovariga bo'lgan talab, raqobatbardosh mahsulotlar navlari urug'larini etishtirish, zotli mol, texnologiya, transport vositalari, ichki va tashqi bozorga taalluqli boshqa axborotlar bilan ta'minlaydigan axborot xizmatini tuzish va takomillashtirish;
- O`zbekiston standartlarini jahon standartlariga moslashtirish bo'yicha ishslash, standartlashni takomillashtirish;
- ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, qishloq xo'jalik mahsulotini etishtirishda tor ixtisoslashtirishga o'tish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O`zbekiston Respublikasi qonunlari, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

1. “Fermer xo’jaliklari to’g’risida”gi O`zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi qonuni.
 2. «Yosh oilalarni moddiy va ma’naviy ko’llab-kuvvatlashga doir ko’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida» O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 18 maydagi PF-3878-sон Farmoni. o`zbekiston Respublikasi konun xujjatlari to’plami, 2007 yil, № 19-20.
 3. «2006—2010 yillar davrida shaxsiy yordamchi, fermer va fermer xo’jaliklarida chorva mollari, birinchi navbatda koramollar sonini ko’paytirishni ragbatlantirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida» O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2006 yil 21 apreldagi 67-son karori. O`zbekiston Respublikasi konun xujjatlari to’plami, 2006 yil, № 17.
 4. 2014 yil yuqori o’sish sur’atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o’zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo’ladi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi.
/Xalq so’zi. 2014 yil 18-yanvar/
 5. Karimov I.A. O`zbekiston iqtisodiy isloxitlarni chukurlashtirish yo’lida. –T.: O`zbekiston, 1995. – 292 b.
 6. Karimov I.A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura, nutqlar. T.: O`zbekiston, 1993. – 261 b.
- ### **II. Asosiy va qo’shimcha adabiyotlar.**
6. Abdug’aniev A.A., Abdug’aniev A.A. Qishloq xo’jaligi iqtisodiyoti. T.: TDIU, 2006. – 283 b.

7. Salimov V.T. va boshqalar. “Fermer va dehqon xo’jaliklari iqtisodi”. – T.:”TDIU”, 2006, 124 b.
8. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish. O’quv qo’llanma, mualliflar jamoasi. T.: «Fan va texnologiyalar» -2005.
9. Sindarov K., Jumanazarov I. Tadbirkorlik sub’ektlarini tekshirishning huquqiy asoslari. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2006.
10. Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha o'zbekiston Respublikasining normativ hujjatlari. -T.: o'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2003.
11. Теоретические основы и модели долгосрочно макроэкономического прогнозирования. Под. Ред Ю.В. Яковца – М.: МФК, 2004.
12. Xusanov R.X. Qishloq xo’jaligida iqtisodiy isloxotlar va agrar iqtisodiyot. – T.: Yagi asr avlodi, 2004. – 205 b.
13. Egamberdiev E., Xo’jaqulov G’. Kichik biznes va tadbirkorlik: O’quv qo’llanma. -T.: "Ma’naviyat", 2003.
14. Umurzoqov U.P., Toshboev A.J., Toshboev A.A. Fermer xo’jaligi iqtisodiyoti. T.: “Iqtisod- moliya” 2007. – 226 b.
15. O’murzoqov O’.P. va b. Qishloq xo’jaligi iqtisodiyoti. T.: “Iqtisod-moliya”, 2008.-87-89 b.

III. Davriy nashrlar, statistik to’plamlar va hisobotlar.

15. O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi ma’lumotlari
16. O`zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma’lumotlari
17. “Oq-oltin” paxta tozalash ochiq aktsiyadorlik jamiyatining hisoboti 2011-2013 y.

IV. Internetdagи saytlar

18. www.gov.uz
19. www.stat.uz
20. www.tfi.uz
21. www.lex.uz